

SCIENTIFIC JOURNAL

MARCH 2024

INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES

Social Sciences & Humanities



VOLUME 1
ISSUE 4
MARCH 2024



<https://internationalsciences.org/>

INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES

VOLUME 1, ISSUE 4, MARCH, 2024

EDITOR-IN-CHIEF

M. Kurbonov

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD

J. Usarov

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

G. Karlibayeva

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Nukus State Pedagogical Institute

H. Jurayev

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Bukhara State University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

Y. Maxmudov

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Termez State University

Sh. Sodikova

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan

Sh. Pazilova

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

E. Xujanov

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Tashkent State Pedagogical University

H. Qurbanov

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Tashkent State Transport University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

F. Khazratov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Bukhara State University

M. Mansurova

Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Tashkent State Transport University

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10843478>

O‘QUVCHILARDA KONSTRUKSIYALASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON AXBOROT TA’LIM MUHITINING O‘RNI

Turdiboyev Sanjar Sobirjon o‘g‘li
JDPU, Matematika va informatika fakulteti, katta o‘qituvchi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarda konstruksiyalashga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron axborot ta’lim muhitining o‘rni haqida tanishib chiqishingiz mumkin.

***Kalit so‘zlar.** Konstruksiya, chizmachilik, kompetensiya, maktab, o‘quvchi, ta’lim, ijodkorlik, elektron ta’lim.*

Bugun elektron ta’lim berish deganda ma’lumotlar bazasida mavjud bo‘lgan va ta’lim dasturlarini amalga oshirish chog‘ida foydalaniladigan axborot, unga ishlov berishni ta’minlovchi informatsion texnologiyalar, texnik vositalar, shuningdek, tegishli axborotni aloqa tarmoqlari bo‘ylab uzatishni, tahsil oluvchilar va pedagogik xodimlar o‘zaro hamkorligini ta’minlovchi informatsion-telekommunikatsion tarmoqlardan foydalanish orqali tashkil etiladigan ta’lim jarayoni tushuniladi. Bu masala bo‘yicha har tomonlama umumlashgan pozitsiyani Katalon universiteti olim-tadqiqotchilari jamoasi ilgari surgan. Xususan, ular elektron o‘qitish mohiyatini tushunish borasida quyidagi yondashuvlarni ajratib ko‘rsatishgan:

- elektron ta’lim berish texnologiya sifatida – resurslar, masofadan turib almashinuv va hamkorlikka ruxsatni yengillashtirish vositasi bilan o‘qitish sifatini oshirish maqsadida yangi multimedia texnologiyalari va Internet tarmog‘idan foydalanish;

- elektron ta'lim berish kommunikatsiyaga mo'ljalni olish nuqtai nazaridan – ta'lim muloqotini zamonaviy kommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshirish;

elektron o'qitish ta'lim paradigmasi sifatida – ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvni amalga oshirish. Bu yondashuv turli raqamli texnologiyalar resurslarini ishlatib ta'lim yo'nalishiga ega interfaol ochiq muhitni yaratishni ko'zda tutadi.

“Elektron o'qitish yoki elektron ta'lim berish” tushunchasini ta'riflash borasidagi to'rtinchi yondashuv yuqorida bildirilgan pozitsiyalarni integratsiyalaydi va u biz uchun eng yaqin yondashuv hisoblanadi. Chunki, u tadqiqotimiz o'ziga xosligi va muammosini ifoda etadi.


Ta'lim-tarbiya jarayonini EATMni kompetentli yondashuv asosida tashkil etilsa, quyidagilar amalga oshishiga xizmat qiladi: o'qitish maqsadlarini ta'lim oluvchilarning shaxsiy maqsadlari bilan muvofiqlashtirish; ta'lim oluvchilarning mustaqilligi va mas'uliyatining doimiy oshishi hisobiga o'qituvchi mehnatini yengillashtirish; o'quvchilarni o'quv material mazmuni va hajmini qisqartirish hisobiga emas, balki individual mustaqil ta'lim ulushini oshirish hisobiga band qilish; o'quv-tarbiyaviy jarayon birligini nazariyada emas, balki amaliyotda ta'minlash; ta'lim oluvchilarni ongli va mas'uliyatli ta'lim olishga tayyorlash ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi oshishiga imkon beradi. Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib, qo'yidagi jadvalda an'anaviy va kompetentli yondashuvga asoslangan ta'limning qiyosiy tahlilini keltirdik.

Ma'lumki, kompetentli yondashuv o'z ichiga quyidagi eng asosiy tushunchalarni oladi: kompetensiya; kompetentlik.

Psixologik-pedagogik va ilmiy adabiyotlarda berilishicha, kompetentlik, kompetensiya juda murakkab, ko'p qismli va deyarli barcha fanlar uchun asosiy tushunchalar hisoblanadi. Shuning uchun ularning talqinlari turli hajmli, tarkibiga ko'ra, ma'no va mantiq jihatdan turlicha.

O'quvchilarda konstruksiyalash kompetensiyalarini rivojlantirish orqali xalqning milliy ruhini, yashash tarzini, an'analarni tiklash va rivojlantirish lozim. Milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining boy merosini o'rgatish, ulardan o'z

amaliy faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlash. O‘quvchilarning bugungi kun talabiga mos bo‘lib, o‘shib ulg‘ayishida kelajagimiz poydevori hisoblangan o‘shib kelayotgan o‘g‘il-qizlarning talablarga mos bo‘lib kamol topishida, ularning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy maqsadlarimizdan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadlarimizni amalga oshirish uchun “Kompetensiya” tushunchasining mazmunini mamlakatimiz va xorijlik pedagog olimlarning fikrlarini ilmiy adabiyotlardan tahlil qilamiz.



An'anaviy va kompetentli ta'lim farqlari.

Ta'lim tizimiga kompetentli yondashuv xorijiy psixologik-pedagogik adabiyotlarda XX asrning 60-yillarida shakllana boshlanib, “Kompetensiya” masalasi ko‘p yillardan buyon olimlar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda.

Kompetensiya: birinchidan, muayyan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan

belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; ikkinchidan, u yo bu sohadagi bilimlar, tajribalar hisoblanadi.

Kompetentsiya so‘zi “to compete” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma’noni bildiradi. So‘zma-so‘z tarjima qilinsa, “musobaqalashishga layoqatlilik”, “moslashuvchanlik”, “yutuqlilik”, “muvaffaqiyatlilik”, “tushunuvchanlik”, “natijalilik”, “o‘quvlilik”, “xossa”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor” kabi tushunchalar asosida ham tafsiflanadi.

Kompetentlik tushunchasining lug‘aviy ma’nosi turli tillarda quyidagicha izohlangan: *competent* (fransuz tilida) – vakolatli; *Competent* (lotin tilida) – qobiliyatli; *Competent* (ingliz tilida) – qobiliyatli.

Kompetensiyaning tayanch, kasbiy va maxsus darajalari asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarning chizmachilik fanini o‘zlashtirishi jarayoni:



Kompetensiyaning turlari.

Mazkur kompetensiyalar umumiy o‘rta ta’lim fanlari orqali o‘quvchilarda shakllantirilishi nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kalinina G.P. “*Konstruirovaniye kak sposob izucheniya geometrii v nachalnix klassax*” // *Psixologicheskaya nauka i obrazovaniye*, 2000, № 1 (30—34).
2. Kondrateva YE.V. “*Obucheniye shkolnikov rabote s chertejom v prosesse resheniya planimetriceskix zadach*” *Dis. kand. ped. nauk : RGB*, 2003.
3. Sharipov Sh.S. “*Ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash: metodlari, mazmuni va tashkiliy shakllari.*” *Arxiv Nauchnix Publikasiy JSPI* (2020).

4. Turdiboyev S.S. “Analysis of students construction competences formation”. *JournalNX* 2022, 8, 82-84.

5. Turdiboyev S.S. “O‘quvchilarning konstruksiyalash ko‘nikmalarini matematik masalalarni mustaqil tuzish yordamida rivojlantirish” // *Uzluksiz ta’lim*. 187-190.

6. Turdiboyev S.S. “O‘quvchilarga geometrik masalalarni ishlashda konstruksiyalash usulidan foydalanishni o‘rgatish” // *Tafakkur ziyosi*. 2021/2-son. 116-118

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10843549>

THE EFFICIENCY OF THE WELLNESS TOURISM IN UZBEKISTAN BASED ON THE SOUTH KOREA'S EXAMPLE

Malika Normuratova

Bachelor's Student "Silk Road" International University of Tourism and Cultural
Heritage

malikanormuratova@gmail.com

ABSTRACT

The most favourable solution for improving tourists visiting flow in Uzbekistan, both locals and foreigners, is enhancing the popularity of the wellness tourism. And, of course we need a perfect example for that, meaningly we can take one certain country which is already great in the wellness branch of the tourism field. In our case, it is the South Korea. Based on the research that has been done, it is known that South Korea mostly offers stress revealing activities which are seen in their unique spa centers, special cafes and nature made destinations. Uzbekistan is also developing in this field with its picturesque spots which do not allow any tourist to pass them by. Uzbekistan needs to improve all the possible facilities that it already has and make these destinations more popular. We should not focus only on the beauty of the nature made destinations but also make a great benefit and profit of them in order to improve the tourism field in Uzbekistan.

Key words: wellness tourism, healthcare, Korean spas (jjimhijilbang, 찜질방), Chingan, Charvak, "Zaamin", "Amirsoy", Jeju island, Bukhasan National Park of Seoul, Yeosu, rural tourism, "Haliu" (Korean wave).

O'ZBEKISTONDA SALOMATLIK TURIZMINING JANUBIY KOREYA O'RNAGI ASOSDA SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

ANNOTATSIYA

Sog'lomlashtirish turizim mashhurligini oshirish O'zbekistonda mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimini rivojlantirish uchun eng yaxshi qarordir. Va, albatta, buning

uchun bizga a'lo darajali namuna kerak, ya'ni biz aniq bir mamlakatni, qaysiki allaqachon bu sohada o'zini namoyon qila olganligini ko'rsatishimiz lozim bo'ladi. Bizning holatimizda, bu Janubiy Koreya mamlakati hisoblanadi. Izlanishlar natijasida, ma'lumki Janubiy Koreya asosan stressni bartaraf qiladigan omillarni amalga oshirgan. Bu ularning noodatiy spa maskanlari, maxsus kafelari va tabiat yaratgan manzaralarida ifodalangan. O'zbekiston ham bu borada o'zining ko'rkam maskanlari bilan taraqqiyot sari bormoqda va hech bir sayyoh shu joylardan befarq o'tolmaydi. Kelajakda O'zbekiston yuqorida bayon qilingan joylarni yanada mashhur bo'lishi uchun barcha imkoniyatlarni rivojlantirishi lozim. Biz faqatgina tabiat yaratgan go'zalliklar bilan chegaralanib qolmasdan, ulardan unumli foydalanib, O'zbekistonda turizm sohasini yanada ko'klarga ko'tarishimiz kerak.

Kalit so'zlar: sog'lomlashtirish turizimi, sog'liqni saqlash, Koreya spa maskanlari (jjimhijilbang, 찜질방), Chimyon, Chorvoq, "Zomin", "Amirsoy", Jeju qirgogi, Buhasan Seul milliy parki, Yosu, chekka turizim, "Haliu" (Koreya to'lqin).

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ПРИМЕРЕ ЮЖНОЙ КОРЕИ

АБСТРАКТ

Самым подходящим решением для улучшения потока туристов в Узбекистан, как местных, так и иностранных, является повышение популярности оздоровительного туризма. И, конечно же, нам нужен отличный пример для этого, то есть мы можем взять одну определенную страну, которая уже является превосходной в сфере оздоровительного туризма. В нашем случае – это Южная Корея. Основываясь на исследовании, которое было проведено, известно, что Южная Корея, в основном, предоставляет деятельности, которые помогают избавиться от стресса, рассмотренные в их необычных спа-центрах, специальных тематических кафе и местах, сделанные

природой. Узбекистан также развивается в этой сфере, представляя свои красивые места, которые не позволят ни одному туристу пройти мимо. Узбекистан нуждается в улучшении всех существующих возможностей, которые уже у него есть и сделать те места более популярными. Мы не должны фокусироваться только на красоте мест, сделанные природой, но, также извлечь пользу и прибыль от них, чтобы улучшить сферу туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: оздоровительный туризм, здравоохранение, корейские спа (Чимчильбан, 찜질방), Чимган, Чарвак, “Заамин”, “Амирсой”, остров Джеджу, Национальный парк Сеула Бухасан, Ёсу, сельский туризм, “Халию” (корейская волна).

Introduction. For the past years, Uzbekistan has been attracting tourists and even scientists only for the historical destinations which are full of mysterious monuments, architecture, etc. Even among locals domestic tourism started a bit decreasing due to the fact that citizens of the Republic of Uzbekistan want to experience something new and unique and not always visiting the sights which are all similar in terms of architecture, structure of the buildings and so forth. It is a known fact that pilgrimage or more commonly known as ziyarah tourism has been involving locals to travel to different cities and regions. Most popular among them are Bukhara and Samarkand. These two cities are very well known among foreigners as well. But there is a question again, for what? Not surprisingly, for the historical sites too. So, this is the issue we, future specialists in the tourism field, should deal with and offer modern solutions to attract not only tourists from various countries but also locals as well. In this article a reader can find the most preferable solutions to enhance the level of the wellness tourism in Uzbekistan. The most emphasized solution will be on the stress-revealing activities which would be offered and presented in popular nature made destinations in sunny country, Uzbekistan. While reading the article it can be understood that those

activities are provided only in South Korea, the country which is taken as a role model for improving the wellness tourism in the Republic of Uzbekistan. The aim of this article is to promote stress-revealing activities in targeted country. Before the explanation of this solution the clear definition of the “wellness tourism” ideology is given below in order to make sure that those possible solutions would be really helpful.

The concept of the wellness tourism. Health or more known as a wellness tourism is the travel to certain places for the purpose of prevention and promotion of health. The competitiveness of the tourism industry affects the success of destinations. In fact, it has proven to be an essential requirement for the long-term growth of a local or national tourism industry in a highly competitive market. Tourist destinations are no longer special and unique natural, cultural, artistic and ecological resources, but attractive products that offer attentive services to provide travelers with unforgettable vacations (Rodríguez López, 2022). In every sphere, especially in the tourism industry, the service plays a significant role. What makes tourists come back to certain country, city, destination? It is definitely service. In the topic we are dealing with all employees should provide a great customer service while accepting guests in different healthcare spots. The United Nations World Tourism Organization (UNWTO) defines wellness tourism as: Health tourism is a type of tourism activity that aims to improve and balance all major areas of human life, including the physical, mental, emotional, professional, intellectual and spiritual realms. The main motivations of wellness tourists are to engage in preventative, active and lifestyle enhancing activities such as fitness, healthy eating, relaxation, body care and healing treatments (Rodríguez-López, 2022). People can get distracted in a good way by doing things like practicing yoga, eating healthy, getting massages and spa treatments, and exercising. These activities are also known as ways to prevent problems before they happen, make good choices before something goes wrong, and improve lifestyle. If people visit places that are focused on health while they travel, they can have a good balance of feeling good in their body and emotions, which helps keep them healthy. There are several components which are

included in the wellness tourism. They are natural environment, spirituality, sports and events (Emerald, 2021).

The most favorable solutions in stress-revealing activities for Uzbekistan based on the examples of South Korea. First of all, we should understand why the tourism sphere has increased so much in the South Korea before talking about the examples. It has been a pretty while since the word “Haliu” (한류) or also known as the “Korean wave” started to gain popularity all over the world and attract tourists. “Haliu” stands for Korean culture, mostly such as korean dramas, movies, famous korean pop music (k-pop) and korean fashion (Zidehsaraei, 2015). The fans of those dramas or k-pop love to visit special sights devoted to these themes. There is even an open-air museum or just an amazing park with the statues of the actors from the famous korean drama “Winter Sonata” in the Namisom island, South Korea. It is really gorgeous if you visit this wonderful place especially in the seasons of autumn and winter. While walking in that park a person can dive into the romantic atmosphere and forget about all problems.

And what about the examples which are going to be taken for Uzbekistan? Actually, there are dozens of special destinations which indeed help people escape from the hustle and bustle of the city life. The first is anti-stress cafes with the animals (which can be seen on the figure 1).

Figure 1: Anti-stress animal café in Seoul



Source: Korean go go, 2022

The most popular district with this kind of cafes is Myeongdong, Seoul. You can find almost any animal beginning with the cats ending with baby kangaroos. Koreans are known as the workaholics and when they visit those cafes, they say that it is really

helpful for them to avoid stress and just relax. Many scientists also proved that playing with the animals helps to be more energetic and increases the hormone of happiness, serotonin. Such type of cafes is located only in South Korea in the whole world for now. So, it would be great to create such animal cafes in Uzbekistan as well. It would increase the domestic tourism firstly. People would start traveling inside the cities. And then it would be very unique for foreign visitors too. Uzbekistan is famous mostly for the cheap travel. So, rather than going to South Korea which can require a really good budget tourists can just come to Uzbekistan and experience the same but with more affordable budget. Another positive side of those cafes is the protection of animals. It is not a secret that many animals can suffer on the streets because there might not always be shelters for them. But in those cafes, all those animals would be taken care and protected.

Unusual spa centers

Another example for relaxation is creating special spa centers like jjimjilbangs (찜질방). Koreans' attitude towards spa centers is totally in a different way than in any other countries. They allot special places and lands to construct spa centers (Figure 2).

Figure 2: Traditional spa centers in South Korea and special uniform to wear there



Source: Living + Nomads, 2023

People are also given special clothes such as hats (which are actually towel) and t-shirts with shorts. They can even spend their whole day there. This place is especially popular among young generation. People are also treated with the delicious meals from the Korean cuisine there. These spa centers are multifunctional that even some special game zones are available, comfortable tables and chairs are also placed there for having a lunch, dinner. Briefly speaking, tourists can not only enjoy the spa itself but also do other activities as well. The most famous spa centers are “Banyan Tree Spa”, “Centum Spa Land”, “The Ananti Cove-Water House” (Korea Tourism Organization, 2020). About 13-15 jjimjilbangs are located in each of them where people are given special treatments.

Considering rural tourism as the chance to enhance the domestic tourism’s level. As a matter of fact, most of the spots devoted to the well-being of a human are located in suburbs of the city, rural tourism is becoming really important. In many European countries the rural tourism is considered to be the most essential type. And mostly tourists love to experience "wine tourism" (Corina, 2018). But, here, in Uzbekistan it would be better to focus more on the stress escaping activities which could enhance the spiritual energy. It means that creating more spa centres which are only specialized in offering a very pleasant relaxation (not just like in most hotels) would be the best choice. They have special buildings and places obtained by spas. We should also take it into account. Moreover, if those spas are located in some rural areas with the fresh air, it would be like a double pleasant touristic experience because of the proximity to the nature. A tourist can fully enjoy all spa procedures and also have a nice walk or dinner in the surrounding of the nature. And we also have many sanatoriums where a tourist can enjoy his trip to the fullest. Some places with good weather for leisure are called "Shakhimar-dan", "Chartak", "Zaamin", "Tibet", Chimgan and Char-vak. Zaamin sanatorium is known as "Uzbek Switzerland" because it has lots of tall old trees that give off a nice smell. The air is already good up high in

the mountains, so it's a good place to get better. The Aktash Sanatorium is a famous vacation spot in the mountains with pretty views of forests and rivers called Aktash and Ayubsai. The country's favorite place to go skiing is called "Amirsoy". It's really big, about 900 hectares! It was built to match ski resorts around the world. It's on the north side of Maigashkan Mountain in the Tien Shan mountains, specifically the Beldersay area in Bostanlyk (Aytmetova, 2021).

Figure 3: Shakhimar-dan, Uzbekistan *Figure 4: Amirsoy ski resorts, Uzbekistan*



Source: KUN.UZ, 2015



Source: Atera.Uz, 2023

In the figures 3 and 4 nature-made destination (Shakhimar-dan) and the most known place for winter travel (Amirsoy) are shown. It is very great that we have such kind of places but the tourist experience should not be limited only within the visiting beautiful places of the nature and doing only some activities. Regarding "Amirsoy" tourists can still do winter sports and extreme activities. But what about summer season? Again, the example of South Korea will show a great solution. There is a place called Yeosu which is surrounded by the sea. They created rail bike there. It is pity that there are no big seas in Uzbekistan but we have a plenty of rivers where such kind of activities as riding a bike could be also provided.

Figure 5: Yeosu Ocean Railbike



Source: Korea Tourism Organization, 2023

There are many other places with the proximity to the nature in South Korea as well except Yeosu (Figure 5). For example, Jeju-do province, Bukhasan National Park of Seoul which amuse with their beauty and breathtaking views of the nature. Just by walking in those places a person can do even pilgrimage. By the way, pilgrimage does not stand for only religious purposes but more for the physical and psychological experiences. Because while walking on foot a person can achieve the self-awareness and be in one harmony with the nature (a bit similar to “yoga”). So, if we create some pilgrimage routes in Uzbekistan’s nature-made destinations tourists can definitely enjoy anti-stress activity by just walking.

Conclusion. The South Korea has shown perfect results in developing the wellness tourism. Especially by creating the “Haliu” (Korean wave), spa centers and anti-stress cafes. Along with them South Korea has increased the popularity of the rural tourism as well. In some aspects, this country and Uzbekistan have many similarities regarding the rural tourism mostly. However, it would be great to take some examples from South Korea to enhance the popularity of the wellness tourism in Uzbekistan too. There are a lot of recreational and healthcare spots in Uzbekistan but there is a lack of exactly stress revealing activities and touristic offers in the sphere of the wellness tourism. By

travelling more to the nature made destinations a person can also get rid of the stress, meaningly that it would help to his wellbeing. And people should not always choose the same destinations and get the same service. They should be ready to the new spots, especially those places which are connected with the wellness tourism. So, try to travel, explore and enjoy more during your journey in Uzbekistan!

REFERENCES

1. Aytmetova, N. R. (2021). *Recreational Potential and Prospects of Tourism Development in the Republic of Uzbekistan. Middle European Scientific Bulletin. DOI: 10.47494/mesb.2021.19.962;*
2. Corina, G.S. (2018). *Rural development an opportunity for development. Universitatii Suceava;*
3. *Discover Korea. Korea Tourism Organization Asia & Middle East Team., Ltd. 2020;*
4. Rodríguez-López, A & N. (2022). *Application of a Decision-Making Tool for Ranking Wellness Tourism Destinations. Sustainability. DOI: 10.3390/su142315498;*
5. *Tourism Review Manuscript. (2021). Wellness tourism and the components of its offer system: a holistic perspective. Emerald. DOI:10.1108/tr-08-2020-0373/full/html;*
6. Zidehsaraei, M. (2015). *Analysis of the Factors Attracting Foreign Tourists to South Korea, with Emphasis on the Visual Media and Mass Communication.*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10843644>

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI

Sharifxo‘jaev Shavkat Okilovich

iqtisodiyot fanlari doktori, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrası professori

Ziyoda Kamilova Abdurahimovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada statistik va tadqiqot ma’lumotlari asosida O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishining hozirgi tendensiyalari tahlil qilingan, jumladan, yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shishi, investitsiya siyosati, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, savdo, infratuzilma loyihalari, shuningdek, xalqaro munosabatlarning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri kabi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga O‘zbekiston iqtisodiyotini yaqin yillarda rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlariga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, O‘zbekiston, tendensiyalar, istiqbollari, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya siyosati, qishloq xo‘jaligi, sanoat, savdo, infratuzilma, eksport, import, innovatsiyalar, rivojlanish strategiyasi, institutsional islohotlar, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, statistika, xalqaro aloqalar, investitsiyalar, texnologiyalar, biznes, tarkibiy islohotlar, raqobatbardoshlik, kichik biznes, iqtisodiy o‘shish, barqarorlik.

ABSTRACT


The article analyzes the current trends of Uzbekistan's economic development based on statistical and research data, including gross domestic product (GDP) growth, investment policy, agricultural development, trade, infrastructure projects, as well as international relations. The main aspects of the economic development of the country, as well as the impact on the economy of Uzbekistan, were considered. At the same time, attention was paid to the strategic goals and priorities of the development of the economy of Uzbekistan in the coming years.

Key words: *modernization of the economy, Uzbekistan, trends, prospects, economic development, investment policy, agriculture, industry, trade, infrastructure, export, import, innovations, development strategy, institutional reforms, macroeconomic indicators, statistics, international relations, investments, technologies, business, structural reforms, competitiveness, small business, economic growth, stability.*

“Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish” mazkur yo‘nalishlardan eng muhimi hisoblanadi.

Hozirda O‘zbekiston statistika amaliyotida xalqaro tavsiyalar asosida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, jumladan yalpi ichki mahsulot (YAIM) hisob-kitoblari amalga oshirib kelinmoqda.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasining YAIM hajmi joriy narxlarda 1 066 569,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,0 % ga o'sdi (1-rasm).




1-rasm. 2023- yilning yanvar-dekabr holatiga O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da

YAIM tarkibida o'tgan yilning mos davriga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida 4,1 %, sanoat tarmog'ida 6,0 %, qurilish tarmog'ida 6,4 %, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 10,2 %, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlarida 12,3 % va boshqa xizmat tarmoqlarida 4,5 % o'sish kuzatildi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining 94,5 % ini tashkil etdi va 5,9 % ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri 5,5 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o'sdi.

Shuningdek, YAIM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 %, sanoat tarmog'i – 1,5 %, qurilish tarmog'i – 0,4 %, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 0,7 %, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 0,8 % va boshqa xizmat tarmoqlari – 1,1 % ijobiy hissa qo'shdi (2-rasm).



2-rasm. 2023- yilning yanvar-dekabr holatiga O'zbekiston Respublikasi YAIMning o'sishiga iqtisodiyot tarmoqlarining qo'shgan hissasi, jamiga nisbatan % da

Kuzatilayotgan davrda iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 23,0 %, sanoatning ulushi 24,6 %, qurilishning ulushi 5,9 %, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 6,8 %, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlarining ulushi 7,3 %, boshqa xizmat tarmoqlarining ulushi 26,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga YAIM joriy narxlarda 29,3 mln. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,8 % ga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60- son Farmonida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirish orqali sanoatning yetakchi

tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlashga alohida urg'u berilgan.

Respublikamizda sanoat sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida misli ko'rilmagan yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida respublikamizda faoliyat yuritayotgan 70,3 mingdan ziyod sanoat korxonalarini tomonidan 655,8 trln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,0 % ga oshdi. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulush qayta ishlash sanoati hissasiga (84,4 %) to'g'ri keldi, shu bilan bir qatorda iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish, investitsion faoliyatga urg'u berish natijasida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining ulushi (8,4 %) ham o'sib borayotganini ta'kidlash lozim.

Faol investitsion siyosat yuritilishi hamda sohaga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etilishi natijasida 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati ulushi 6,7 % ga, suv bilan taminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoati ulushi 0,5 % ga o'sishga erishildi.

Olib borilayotgan samarali islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari hajmi barqaror o'sishda davom etmoqda. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 149,9 trln. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,4 % yuqoridir.

2024- yilning 1 yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 34 749 tani tashkil etdi. Mazkur qurilish korxonalarining katta qismi, katta shaharlarda, xususan 7 310 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 21,0 % i Toshkent shahrida joylashgan.

Olib borilayotgan islohotlar natijasida boshqa tarmoqlar qatorida bu sohada ham xususiy sektorning ulushi yuqori ko'rsatkichga ega bo'lmoqda.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining 97,2 % i nodavlat mulkchilikdagi korxonalar tomonidan bajarilgan.

O‘z navbatida davlat mulkchiligidagi korxonalar tomonidan jami 4 151,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmining 2,8 % ini tashkil etdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushini oshirish, joylarda xizmat ko‘rsatish sohasida mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish natijasida 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 470,3 trln. so‘mga yetdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 13,7 % o‘shishga erishildi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o‘shishiga moliyaviy xizmatlarning 20,6 % ga (ko‘rsatilgan jami bozor xizmatlari hajmining o‘shishidagi ta’siri 4,5 % punkt), transport xizmatlari 8,0 % ga (o‘shishdagi ta’siri 1,8 % punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 24,6 % ga (o‘shishdagi ta’siri 1,6 % punkt), savdo xizmatlari 10,2 % ga (o‘shishdagi ta’siri 2,5 % punkt), ta’lim sohasidagi xizmatlarni 22,8 % ga (o‘shishdagi ta’siri 1,0 % punkt) o‘shishi ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Davlat tomonidan agrar sohani qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy manfaatdorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan tizimli tadbirlar natijasida, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida umumiy ishlab chiqarish hajmi 426,3 trln. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 4,1 % ga oshdi.

Respublikada boshqoli don ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishni rag‘batlantirish tizimi joriy etilgani o‘zining ulkan ijobiy samarasini berdi. Jumladan, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida respublika bo‘yicha jami 8 426,6 ming tonna (2022- yilning mos davriga nisbatan 105,5 %) – don va dukkakli don ekinlari yetishtirildi.

Respublika hududlarida meva-sabzavot, poliz, kartoshka va uzum mahsulotlarini ko‘paytirish, agrotexnik tadbirlarni o‘z muddatida o‘tkazish, ulardan yuqori sifatli, eksportbop mahsulot yetishtirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilganligi, shuningdek, bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar asosida intensiv mevali bog‘ va tokzorlarni barpo etish bo‘yicha tizimli ishlarning

amalga oshirilishi natijasida respublikada 3 574,1 ming tonna (103,8 %) – kartoshka, 11 553,7 ming tonna (103,5 %) – sabzavotlar, 2 553,5 ming tonna (105,5 %) – poliz, 3 121,7 ming tonna (104,1 %) – meva va rezavorlar hamda 1 737,6 ming tonna (98,7 %) – uzum yetishtirildi.

Joriy davrda respublika bo'yicha tirik vaznda jami go'sht ishlab chiqarish hajmi – 2 833,3 ming tonnani (2022- yilning mos davriga nisbatan 103,9 %), sog'ib olingan sut – 11 968,7 ming tonnani (102,9 %), olingan tuxum – 8 487,5 mln. donani (104,4 %), qirqib olingan jun – 38,6 ming tonnani (103,6 %), olingan qorako'l teri – 1 321,1 ming donani (102,6 %) hamda ovlangan baliq – 198,9 ming tonnani (107,3 %) tashkil etdi.

Keyingi yillarda chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish dasturlari doirasida qoramolchilik, qo'y va echkichilik, parrandachilik kabi ko'plab xo'jaliklar faoliyati yo'lga qo'yilib, chorva mollari bosh sonining ko'payishiga muhim zamin yaratmoqda. Buning natijasida 2024- yilning 1 yanvar holatiga respublikada yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni – 14,1 mln. boshni (2022 yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga ko'p), shundan sigirlar – 5,0 mln. boshni (1,8 % ga ko'p), qo'y va echkilar – 24,1 mln. boshni (2,2 % ga ko'p) va parrandalar – 103,0 mln. boshni (5,8 % ga ko'p) tashkil etdi.

Oxirgi yillarda respublikada amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi 62,6 mlrd. AQSH dollariga yetdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 12,1 mlrd. AQSH dollariga yoki 23,9 % ga ko'paydi. Mamlakat tarixida bu natija eng yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etilgan.

Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 24,4 mlrd. AQSH dollariga (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,8 % ga ko'paydi) va import hajmi 38,1 mlrd. AQSH dollariga (24,0 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 13,7 mlrd. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston davlatlari bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 40,4 % ni tashkil etdi.

Olib borilayotgan chora-tadbirlarning samarasi o'laroq, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 352,1 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 22,1 % ga oshdi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 84,9 trln. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 24,1 % ini tashkil etdi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 84,3 trln. so'mni tashkil etdi va jami investitsiyalardagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 9,1 % punktga ko'payib, 24,0 % ni tashkil etdi.

2023 yilda erishilgan ushbu natijalarga har tomonlama o'ylangan samarali amalga oshirilayotgan siyosat, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, iqtisodiyotda chuqur tizimli investitsion islohotlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangilash hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tub islohotlar asos bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz;>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, www.stat.uz;
3. Асадов Х.С. Современные тенденции экономического развития регионов Узбекистана // Экономика Центральной Азии. – 2020. – Том 4. – № 3. – С. 251-262. – doi: [10.18334/asia.4.3.110805;](https://doi.org/10.18334/asia.4.3.110805)
4. Махмудова Г.Н, Модернизация экономики в Узбекистане: тенденции и перспективы // Актуальные вопросы современной науки и образования: материалы международной научно-практической конференции. Вып. 16. Т.1. – Киров: ООО "Типография "Старая Вятка", 2017.
5. Туляков Е., Экономическое развитие как приоритет в Стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы: <https://www.ankasam.org>.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10843769>

SAMARQANDNING 2750 YILLIGI XALQARO MIQYOSDA NISHONLANISHI VA JAXONGA TANILISHI

Juraqulova Farangiz
TDPU Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Samarqandning 2750 yilligi xalqaro miqyosda nishonlanishi va jaxonga tanilishi, Samarqandning 2750 yillik tarixi davomida Samarqand shahrining holati haqida ma'lumot beriladi.

Kalit soʻzlar: *iqlimi, madrasa, masjid, Klavixon, Amir Temur, Ulugʻbek, non, shoyi, qogʻoz, Buyuk ipak yoʻli.*

Alisher Navoiy Movarounnahrning markazi boʻlmish Samarqandni jannatlarga tenglashtirib “Samarqandi firdavsmonand¹” deb ataydi. Uning tasavvurida Samarqand – jannat, atrofidagi ariqlar ham jannat ariqlari. Rudi Koʻhak (Zarafshon daryosining) suvi asal bilan tengdir.

Qadimiy va boy tarixi, betakror madaniyati, buyuk siymolari bilan jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan, milliy davlatchiligimiz va maʼnaviyatimizning koʻhna beshiklaridan biri boʻlgan, noyob tarixiy-meʼmoriy obidalar, muqaddas qadamjolarini oʻz bagʻrida asrab-avaylab kelayotgan Samarqand shahrining 2750 yillik qutlugʻ sanasini 2007-yilda Mustaqillik umumxalq bayrami bilan bogʻliq tantanalar kunlarida keng miqyosda nishonlash hamda yurtdoshlarimiz, xususan, yosh avlodni milliy gʻurur va iftixor, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida

¹ Д. Салохий. Алишер Навоий Самарқандда. Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. Тошкент — Самарқанд Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2007.Б.202

tarbiyalash maqsadida¹ prezident farmoni imzolandi. Shu tariqa YUNESKO Bosh konferensiyasining 2005 yil 20 oktabrdagi 33-sessiyasida Samarqand shahrining 2750 yilligini nishonlash haqidagi qaror qabul qilindi². Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tadbir davomida Samarqandning qadimiy shahar ekanligi va uning tarixdagi buyuk davlatlar bilan taqqoslash mumkinligini aytib o‘tdi. Samarqand deganda biz har qanday odamning qalbini sehrlaydigan go‘zal va buyuk shaharni tasavvur qilamiz. Bu siz bir marta ko‘rgan va yana ko‘rishni orzu qilgan shahar³". Tarixiy ildizlarning qadimiyligi nuqtai nazaridan Samarqand haqli ravishda Rim va Afina, Bobil va Tibet kabi qadimiy sivilizatsiyalar bilan bir qatorda", dedi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov va "shu bilan birga, faqat Samarqand va Rim abadiy shaharning shon - sharafiga sazovor bo‘lishdi". "Agar biz butun dunyoda" G‘arbda - Rim, Sharqda-Samarqand" iborasi keng qo‘llanilishini hisobga olsak, bu uning yuksak e‘tirofining mohiyatini yana bir bor ta‘kidlaydi", - deya ta‘kidladi⁴ birinchi prezidentimiz I.A.Karimov.

Klavixo Samarqand haqida quyidagilarni yozadi.Samarqand va uning atrofidagi yerlar hayratomuz darajada mo‘l-ko‘l edi.Mana shunday boyligi tufayli shahar Samarqand, deb ataladi.Uning haqiqiy nomi Semizkent,ya‘ni boy shahar demakdir⁵.Klavixo safari davomida Temuriylar davridagi qurilishlar shiddat bilan yuz berayotganligiga ham guvoh bo‘lib quyidagilarni yozib qoldiradi;

Klavixo aytganidek,kechiktirmasdan qayta qurish yo‘lga qo‘yildi, kechayu kunduz ish davom etdi... “Cherkov endi belgilangan o‘n kunlik vaqt ichida to‘liq qayta qurilgan edi va bu juda qisqa vaqt ichida qanday qilib ulkan bino qurilishi va qurib bitkazilishi mumkinligi ajablanarli edi”⁶.

Samarqand 2750 yillik shaharsozlik tarixida nafaqat savdo markazi balki ilm va madaniyat markazi sifatida ham mashhur bo‘ldi. Bilamizki, X asrdayoq Samarqandda

¹ <https://lex.uz/> .Samarqand shahrining 2750 yilligi nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.07.2006 yildagi PQ-426-son

² <https://darakchi.uz/Samarqand - Yer yuziga sayqal bergan kent. 18.10.2019>

³ <https://www.uzdaily.uz/Silk Road city marks 2,750 years. 27/08/2007>

⁴ <https://ria.ru/ В Узбекистане отметили 2750-летие города Самарканд.26.08.2007>

⁵ Р.Г.Клавихо Самаркандга-Амир Темур Саройига Саёхат кундалиги(1403-1406).Т.2010.Б.199

⁶ <https://www.koreatimes. Samarkand Marks 2750th Anniversary 28.08.2007>

10 dan ortiq madrasalar faoliyat yuritgan. Samarqand nafaqat ta'lim markazi balki ilm marifat o'chogi ham bo'ldi. Tarixiy jihatdan Samarqand Markaziy Osiyo mintaqasining yuragi bo'lgan. Temuriylar Uyg'onish davrida Samarqand Markaziy Osiyoning asosiy madaniy markazlaridan biriga aylandi. iqtisodiyot, texnika, adabiyot va ilm-fan sohasida XV va XVI asr hatto zamonaviy Yevropa darajasi bilan taqqoslanadi. XV asr shaxarsozlik va me'morchilik, ilm-fan, adabiyot, san'at rivojining yangi bosqichi sifatida xarakterlanadi. Bunda munajjimlar va matematiklarning Samarqand maktabi (Mirzo Ulug'bek, Qozi Zoda Rumiy, Ali Qushchi) o'ziga xos o'rin tutadi. Bu davrda ilohiyot, huquqshunoslik, tibbiyot, tarix, falsafa, miniatyura, musika san'ati va adabiyot juda rivojlandi. Ko'plab fan sohalari astronomiya, geografiya, tarix xattotlik va musiqa sohasida ijod qilgan olimlar yetishib chiqdi.

1979-yil Yaponiyada o'tkazilgan xalqaro konferensiyada Yaponiya Fanlar akademiyasining Prezidenti prof. Sapporo Miyakining "Samarqand – nafaqat jahon sivilizatsiyasining markazi bo'lib qolmay, alloma Mirzo Ulug'bek asos solgan falakiyot ilmining ham markazidir¹" deb aytgan, so'zlari Samarqandni xalqaro miqyosdagi salohiyati to'g'risidagi fikrlarini yana bir bor tasdiqladi.

Samarqandning butun jahon tarixida tutgan o'rni buyukdir. Chunki Samarqand dunyo sivilizatsiyasiga muhim hissa qo'shgan shaharlardan biridir. Shaharning rivojida, ayniqsa, ichki va tashqi savdo alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Dunyo savdosida ham Samarqandning o'rni katta bo'lib Buyuk ipak yo'lining bir tarmog'i ham aynan Samarqanddan o'tganligi uning dovrig'ini yoyishda muhim omil bo'ldi. Qadimgi Xitoy manbalarida Samarqand yirik savdo shahri, aholisi sifatida tasvirlangan (erkaklar) savdo-sotiqda mohir va yigirma yoshga to'lgan erkaklar savdo qilish maqsadlarida boshqa hududlarga sayohat qilishgan². Samarqandda yirik savdo rastalari

Yana bir hanuzgacha tilshunoslikda bahsli boʻlib kelayotgan muammolardan biri frazeologizmlar tarkibiga kiruvchi ibora va idiomalarning oʻzaro farqli jihatlarini ajratish masalasidir. Bunday muammoning yuzaga kelishiga sabab har ikkala lingvistik vositalarning ham oʻxshash tomonlari borligidir. Masalan, har ikkalasi ham nutqqa tayyor holda kiritiladi, koʻchim va obrazlilik mavjud, imotsional-ekspressivlikni taʼminlaydi. Lekin ular oʻrtasida farqli jihatlar borligi aniq, aks holda ikkalasi ham alohida terminlar bilan nomlanmas edi. Yaqin davrgacha ushbu ikki termin farqlanmas, bir-biridan ajratib koʻrsatilmamas edi. XX asrning 40-yillariga kelib idiomalar haqidagi qarashlar yuzaga kela boshlagan. I.Ermatov va N.Mahkamovning "Tilshunoslik terminlari izohli lugʻati" da idiomalar kengroq izohlangan "Idioma - (yunoncha idioma oʻziga xos ifoda ibora) shaklan mantiqqa toʻgʻri kelmaydigan fikr, voqea, hodisalarning ifodalanishi. Ular maʼlum tilgagina xos boʻlib, boshqa tillarga soʻzma-soʻz tarjima qilib boʻlmaydi. Masalan, amamning buzogʻi, gapning poʻst kallasi, yuragi shuv etib ketdi.² Shuningdek, taniqli tarjimon, rahmatli Gʻ.Salomov oʻzining "Til va tarjima" asarida idiomalar haqida quyidagi mulohazalarni yozgan: Birinchidan, sentaktik jihatdan gap boʻlaklariga boʻlib boʻlmaydi, yaʼni tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi idiomasi tarvuzi-ega, tushdi-kesim, qoʻltigʻidan-toʻldiruvchi tarzida tahlil qilish imkonsiz; Ikkinchidan, idiomalarni boshqa tillardan aniq tarjima qilish mumkin deb quyidagi oʻzbek tiliga rus tilidan tarjima asosida kirib kelgan: "pir gʻalabasi, amerika ochmoq, xitoy devori, gʻalvir bilan suv tashimoq, qizil ip boʻlib

¹ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент, 2019. – бет

² Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlari izohli lugʻati. – Toshkent: Fan, 2013. – B.47

o‘tmoq”¹ kabi idiomalarni misol keltiradi. Uchinchidan, idiomalar jamiyatdagi narsa, voqea, hodisalarga nisbatan bog‘liqlik mavjud emas; To‘rtinchidan, idiomada hech qanday xalq hikmati yo‘q, faqat ko‘chma ma’noda ishlatiladigan barqaror so‘z birikmasi.

Yuqoridagi izohlardan ibora va idiomalarning farqlari xususida shunday xulosa qilish mumkin:

1) iboralar tarkibidagi har bir so‘z yaxlit holda ko‘chma ma’no hosil qiliyotgan so‘zni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi, masalan, yog‘ tushsa yalagudek iborasi tarkibidagi uchala so‘z ham birgalikda "toza" ma’nosini beryapti, ya’ni shunchalik tozaki, xatto yog‘ tushsa ham yalab olgudek;

2) iboralar asosan kundalik muloqotda ko‘p qo‘llaniladi va eslab qolish oson bo‘lib, fikrni obrazli ifodalaydi: ilonning yog‘ini yalagan-mug‘ombir, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan-yuvosh;

3) iboralar ifodalayotgan ma’no jamiyatdagi voqea-hodisalar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi: "qovun tushirmoq" birikmasi qovunni qo‘ldan tushirib yuborish, ehtiyotsizlik qilish holatini ifodalaydi. Ehtiyotsizlik qilish tufayli qovunni tushirib yuborish tabiiyki, kishilarda salbiy imotsiyani yuzaga keltiradi. Mana shu voqelikni obrazli ifoda etish asosida qovun tushirmoq erkin bog‘lamaning "suhbat mavzusiga qovushmaydigan, noo‘rin gap so‘z aytmoq" (O‘TFL) ma’nosi shakllanadi.² Idiomalarda esa aksincha voqea va hodisalarning sodir bo‘lishi imkonsiz, masalan, tuyaning dumi yerga tekkanda, toshbaqa tog‘ga chiqqanda kabi.

4) iboralar doimo ikki va undan ortiq so‘zlardan tashkil topgan bo‘ladi, idiomalarni esa bir so‘z bilan ham ifodalash mumkin: tuzladi-gap bilan boplamoq, boplab jazolamoq.

XULOSA

¹ Тил ва таржима.- Ўзбекистан ССР ФАН нашриёти.- Тошкент, 1966. 262-бет

² Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент, 2019. 89– бет.

Ko‘rinib turganidek frazeologizmlar keng miqyosda o‘rganilib, tadqiq qilinganligiga qaramay uning obyektini belgilashda turli xil farazlar bor. Frazeologizmlar doimo ko‘chimga ega ekanligi hamda obrazlilik uni boshqa birliklardan ajratib turuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Iboralar va idiomalar xususida esa shunday xulosa qilish mumkinki, ular o‘rtasida bir nechta farqlari bor, bu farqlarni ajratish biroz mushkul vazifa bo‘lib kelayotgan bo‘lsada, bu vazifani bajarish ustida ko‘pgina tilshunos olimlar tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

REFERENCES

1. Umarxo‘jaev M.E. *Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi.*- Andijon: ADTPI, 2010.-150-betlar.
2. Бердиёров Х., Расулов Р., Йўлдошев Б. *Ўзбек фразеологиясидан материаллар (биринчи қисм).* Самарқанд, 1976, 12-13-бетлар
3. Маҳкамов Н., Ерматов И. *Тилшunoslik terminlari izohli lug‘ati.*– Toshkent: Fan, 2013.–B.47
4. Маматов А. *Ўзбек тили фразеологияси.* – Тошкент-, 2019. 89– бет.
5. *Тил ва таржима.* - *Узбекистан ССР ФАН нашриёти.* Тошкент, 1966. 264-бет.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10844587>

IQTISODIYOTDA QO‘LLANILADIGAN EXCEL DASTURIDA FOYDALANILADIGAN AMALLAR

Malikov Mirjalol Abdulla o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

To‘ychiboyev Jo‘rabek

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda katta ahamiyat kasb etib kelayotgan dasturlardan biri, ya'ni Excel dasturining iqtisodiy masalalarni yechishda foydalanish haqida yoritib o'tilgan. Shuningdek, bu dasturda yechiladigan turli xil masalalar va ularni yechadigan formulalar haqida ham so'z brogan.

***Kalit so'zlar:** Excel, Excel dasturining rivojlanish tarixi, bu dasturda ishlatiladigan formulalar va ularga doir masalalar.*

ABSTRACT

In this article, one of the programs that is gaining great importance today, that is, the use of the Excel program in solving economic problems, is highlighted. He also talked about various issues and formulas to solve them in this program.

***Keywords:** Excel, the history of the development of the Excel program, the formulas used in this program and issues related to them.*

Ma'lumki, turli xil iqtisodiy masalalarni tez yechish uchun insondan ko'ra inson yaratgan turli dasturlarning o'rni beqiyosdir. Elektron jadvallar hayotning har xil sohasida uchraydigan, avvalo hisoblash va iqtisodiy masalalarni echishda, jumladan, berilganlarni tez o'zgartirib turuvchi masalalarni tezkor ravishda qayta ishlab chiqishda, masalan, bank hujjatlari bilan ishlash kabi keng ko'lamli masalalarni yechishda qo'llaniladigan o'ta quvvatli vosita hisoblanadi. Bu dasturlar shu kabi masalalarni, avvalo aniq va xatosiz undan tashqari zudlik bilan yecha olish qobiliyatiga egadir.

Shu kabi amallarni qila oladigan dasturlardan biri bu Excel dasturi hisoblanadi. Microsoft Excel va bazida esa Microsoft Office Excel deb ham ataladigan bu dastur Microsoft korporatsiyasi tomonidan Microsoft Windows Windows NT va Mac OS, bunga qo'shimcha tarzda Android, IOS, Windows Phone kabilar uchun yaratilgan elektron jadvallar bilan ishlash bo'yicha dastur hisoblanadi. Bu dastur iqtisodiy-statistikaga doir hisob-kitoblarni va grafik vositalar imkoniyatlarini taqdim qiloladigan dasturdir. Microsoft Excel Microsoft Office'ning tarkibiy qismi hisoblanadi va bugungi kunda bu Excel dasturi dunyodagi eng mashhur ilovalar qatoridan hisoblanadi.

Excel dasturining rivojlanish tarixi bo'yicha ma'lumotlarga kelsak, birinchi bor 1979-yil Microsoft firmasi tomonidan Excel dasturi taqdim etildi, va u hozir ham o'z sinfida eng quvvatli dastur safiga kiradi. Shubha yo'qki, Excel eng ommabop dasturlardan biridir. Bu dastur ixtiyoriy axborotni (matnlar, sonlar, sana va hokazolarni) qayta ishlab chiqish va saqlash imkonini beribgina qolmasdan, balki qilgan ishingiz natijasini bezash, ko'rgazmaliroq ko'rsatish va chop etish imkoniyatini beradi. Bunda siz WinWord dasturidagi tahrirlash vositalaridan foydalanishingiz ham mumkin. Dastlab Excelning ommaviy imkoniyatlarini o'zlashtirish qiyin emas, ammo dasturning murakkabligi va imkoniyatlarining juda kengligi sababli ular bilan tanishish uzoq davom etishi mumkin, binobarin, aynan ish jarayonida uning yangi-yangi imkoniyatlarini ko'rish mumkin. 1993-yilda ilk marotaba Microsoft Office'ga birlashtirilish munosabati bilan Microsoft Word va Microsoft PowerPoint Excel'ga

monand grafik interfeysga ega bo‘lishdi. 1993-yildan boshlab Excel tarkibiga Visula Basic’ga asoslangan Excel masalalarini avtomatlashtirish imkonini beruvchi dasturlar uchun Visual Basic dasturlash tili kiritiladi.

Excel dasturida eng ko‘p qo‘llaniladigan formulalardan biri bu qo‘shish formulasidir. Qo‘shish formulasi “=CYMM(_;_)” kabi ifodalanadi:

№	F.I.SH	Oylik maosh	Mukofot puli	Jami
1	S.A.Sobirov	5 620 000	500 000	6 120 000
2	R.T.O‘tkirov	6 431 500	800 000	7 231 000
3	K.J.Sirojov	4 630 000	470 000	5 100 000

=CYMM(_;_)

Keyingi formula ko‘paytirish formulasidir: “=ПРОИЗВЕД(_;_)

№	Meva nomi	Meva narxi	Mevaning soni	Jami
1	Olma	6 500	45	292 500
2	Anor	25 000	35	875 000
3	Banan	31 000	60	1 860 000

=ПРОИЗВЕД(_;_)

Keyingi formula, sonlar ichidan eng kattasini topishda ishlatiladi. Bu formula ishlatilayotganda yanvardan to iyungacha belgilanadi: =МАКС(_;_)

№	Meva	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	Iyun	Eng katta narx
1	Olma	6 500	7 000	7 200	5 000	6 800	7 200

2	Anor	16 500	18 500	19 000	20 000	17 400	20 000
3	Banan	26 800	26 400	27 310	30 100	29 600	30 100

=МАКС

Keyingi formula, sonlar ichidan eng kichigini topishda ishlatiladi. Bu formula ishlatilayotganda yanvardan to iyungacha belgilanadi: =МИН(;;_)

№	Meva	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	Iyun	Eng katta narx
1	Olma	6 500	7 000	7 200	5 000	6 800	5 000
2	Anor	16 500	18 500	19 000	20 000	17 400	16 500
3	Banan	26 800	26 400	27 310	30 100	29 600	26 400

=МИН

Keyingi formula, berilgan sonlarning o'rtacha arifmetigini topadi va bunda yanvardan to iyungacha belgilash orqali topiladi: =СРЗНАЧ(;;_)

№	Meva	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	Iyun	O'rtacha narx
1	Olma	6 500	7 000	7 200	5 000	6 800	6 500
2	Anor	16 500	18 500	19 000	20 000	17 400	18 280
3	Banan	26 800	26 400	27 310	30 100	29 600	28 042

=СРЗНАЧ

Xulosa qilib aytganda, Excel dasturi iqtisodiy masalalarni tezda yechishda, bankda, korxonalarda va albatda buxgalteriya kasbi uchun ajralmas dastur hisoblanadi. Bu dastur yordamida ko'plab amallarni bajarishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1) R.X. Alimov, B.Y. Xodiyev, K. Alimov va boshqalar. S.S. G'ulomovning umumiy tahriri ostida. Milliy iqtisodda axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma T: <Sharq>, 2004. – 320-bet

2) Информатика. Под редакцией проф. Н.В. Макаровой. - М: 1997

3) Ganiyev S.K, Karimov M.M, Tashev K.A. Axborot xavfsizligi, Axborot-kommunikatsion tizimlar xavfsizligi. O'quv qo'llanma T.-Aloqachi, 2008 – 382-bet

4) Akbarov D.Y. Axborot xavfsizligini ta'minlashning kriptografik usullari va ularning qo'llanishlari. "O'zbekiston markasi" nashriyoti. Toshkent – 2009 yil, -398 bet.

5) В. Пассиков. Защита компьютерной информации. – М: Наука, 2001.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10844804>

MA'LUMOTLARNI SAQLASH QURILMALARI TASNIFI

Ernazarov Alisher Ergashevich
alexchigatay1213@gmail.com

Mirjalol Malikov Abdulla o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ma'lumotlarni saqlash qurilmalari tasnifi haqida, saqlashning turlari va xotiraning o'zi nima ekanligi to'g'risida so'z borgan. Shuningdek, eng keng tarqalgan saqlash qurilmalari, BIOS va CMOS xotiralari haqida batafsil yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Ma'lumotlarni saqlash qurilmalari, birlamchi va ikkilamchi saqlash, xotira.*

Ma'lumotlarni saqlash qurilmalari axborotlarni kiritish moslamalari yordamida kompyuter tizimiga kiritilgan ma'lumotlar yoki ko'rsatmalarni qayta ishlashdan oldin kompyuter tomonidan saqlash uchun mo'ljallangan. Xuddi shu tarzda, qayta ishlashdan keyin kompyuter tomonidan ishlab chiqarilgan natija chiqish qurilmasiga ko'rsatilishidan oldin biron bir joyda saqlanishi kerak. Bundan tashqari, kompyuter bilan olingan oraliq natijalar ham saqlanishi kerak bo'ladi.

Saqlash moslamalari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ma'lumotlar va dasturlarni saqlaydi (ko'rsatmalar to'plami).
- oraliq ishlov berish natijalarini o'z ichiga oladi.
- chiqarish qurilmalariga yuborilishidan oldin oxirgi ishlov berish natijalarini o'z ichiga.

Saqlashning ikki turi mavjud: birlamchi va ikkilamchi. Birlamchi saqlash vaqtinchalik yoki operativ xotira bo‘lib, ko‘pincha uni operativ xotira deb atashadi; ikkilamchi xotira doimiy xotira deb ataladi.

Saqlash qurilmalarining tasnifi ma’lumotlarni saqlash va yozib olish uchun mo‘ljallangan turli xil qurilmalarni guruhlash va tartibga solish imkonini beruvchi tizimdir. Ma’lumotlarni saqlash qurilmalarini tasniflash mumkin bo‘lgan bir nechta asosiy mezonlar mavjud.

1. Media turi bo‘yicha:

- Qattiq disk (HDD): ma’lumotlarni saqlash uchun aylanadigan magnit disklardan foydalanadi.

- Optik disk: CD, DVD yoki Blu-ray kabi maxsus disklarga ma’lumotlarni yozib olish uchun lazer texnologiyasidan foydalanadi.

2. Ulanish usuli bo‘yicha:


- Ichki qurilmalar: kompyuter yoki server ichiga o‘rnatiladi va odatda Serial ATA (SATA) yoki Serial Attached SCSI (SAS) kabi avtobus orqali anakartga ulanadi.

- Tashqi qurilmalar: USB, Thunderbolt yoki eSATA kabi turli interfeyslar orqali kompyuter yoki serverga ulanish.

3. Saqlash sig‘imi bo‘yicha:

- Shaxsiy qurilmalar: odatda kichik xotira hajmiga ega, masalan, flesh-disklar yoki ma’lumotlarni uzatish uchun tashqi qattiq disklar.

- Korxonalar qurilmalari: katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash uchun mo‘ljallangan va odatda server tizimlari yoki ma’lumotlar markazlarida qo‘llaniladi.



Eng keng tarqalgan saqlash qurilmalaridan ba'zilari:

1. Qattiq disklar (HDD): ma'lumotlarni saqlash uchun aylanadigan magnit disklardan foydalanadigan mexanik qurilmalar.

2. Qattiq holatdagi disklar (SSD): axborotni saqlash uchun flesh-xotiradan foydalanadigan elektron qurilmalar. Ular qattiq disklarga qaraganda tezroq o'qish/yozish tezligi va ishonchligini taklif qiladi, lekin odatda past sig'imga ega.

3. Optik disklar: CD (Compact Disc), DVD (Digital Versatile Disc) va Blu-ray kabi lazerli o'qish yordamida ma'lumotlarni yozib olish va o'ynatish uchun ishlatiladi.

4. Flash drayvlar: Ma'lumotlarni saqlash uchun flesh-xotiradan foydalanadigan kichik, ko'chma qurilmalar. Ular odatda USB interfeysiga ega va kompyuterlar o'rtasida ma'lumotlarni uzatish uchun ishlatiladi.

5. Bulutli saqlash: Internet orqali ma'lumotlarni saqlash va qabul qilish imkoniyatini ta'minlovchi ma'lumotlarni saqlash xizmatlari. Ular foydalanuvchilarga fayllarni masofaviy serverlarda saqlash imkonini beradi, bu esa ularga Internetga ulangan istalgan kompyuter yoki qurilmadan kirish imkonini beradi.

Zamonaviy axborotni qayta ishlash va saqlash qurilmalari quyidagi parametrlarga ega:

- ✓ axborot sig'imi (bit);
- ✓ ishlatiladigan quvvat;

✓ ma'lumotlarni saqlash muddati;

✓ harakat tezligi.

Elektron ma'lumotlarni saqlash qurilmalari:

- tashqi yoki periferik;
- ichki.

Tashqi kiritish va saqlash qurilmalari

Bularga qattiq disklar, flesh-kartalar, CD, DVD, BD va magnit disklar kiradi.

Axborotni saqlash uchun foydalaniladigan bu qurilmalar shaxsiy kompyuterdan uzilib, boshqa kompyuterga uzatilishi mumkin.

Qattiq magnit disklar ma'lumotlarni saqlash uchun murakkabroq qurilmalardir. Ular katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlashi va uni yuqori tezlikda uzatishi mumkin. HDDlar doimiy ravishda modernizatsiya qilinmoqda, ammo qurilmalarning ishlash printsipti o'zgarishsiz qolmoqda.

Strimerlar magnit lentaga ma'lumot yozib olish imkonini beradi. Qurilmaning ishlash algoritmi kassetali magnitafonga o'xshaydi. Ma'lumotlar boshlar orqali tortilgan magnit lentaga yoziladi. Axborot vositalarining jismoniy xususiyatlari sig'im va tezlikda cheklangan.

Flash kartalar

Ular axborotni saqlash va ma'lumotlarni kiritish/chiqarish qurilmalari. Ularning harakatlanuvchi qismlari yo'q va bitta chipda yaratilgan.. Fleshli xotira hujayralarining barcha modifikatsiyalari uchun ishlash printsipti barcha qurilmalar uchun bir xil. Farqlar interfeys va foydalaniladigan kontrollerda yotadi.

Tasodifiy kirish xotirasi (RAM, RAM) ma'lumotlar va dasturlarni saqlash uchun qurilma bo'lib, ular axborotni qayta ishlashni boshqaradi. Bu modulga (bar) joylashtirilgan chiplar to'plamiga o'xshaydi. U anakartning mos keladigan ulagichiga joylashtiriladi va shu bilan boshqa shaxsiy kompyuter qurilmalari bilan aloqa qiladi.

Kesh xotirasi ma'lumotlarga kirish uchun juda qisqa vaqtga ega. Mikrosxemaga o'rnatilgan. Kesh xotirasi so'nggi kirishlardan olingan ma'lumotlarning nusxalarini RAM sohalariga saqlaydi.

CMOS - xotira - kompyuter o'chirilgan bo'lsa ham, kompyuter sozlamalari, jumladan sana, vaqt, parollar haqidagi ma'lumotlarni uzoq muddatli saqlash imkonini beruvchi qurilma. Maxsus batareyadan quvvat oladi, xotira yarim doimiydir.

BIOS (Basik Input/Output System) - bu ishlab chiqarish jarayonida ma'lumotlar kiritiladigan doimiy xotira, doimiy xotira uchun qurilma. Kompyuterni boshqarish funksiyalari, OTni yuklashning dastlabki bosqichi va konfiguratsiya dasturini o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ergashevich, E. A., & Zufar o'g'li, A. M. (2024). Zamonaviy Axborot Texnologiyalari Infratuzilmasining Tarkibiy qismlari. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 2(1), 154-157.

2. Ergashevich, E. A. (2024). AXBOROTNI MUHOFAZA QILISHNING MAQSAD VA ASOSLARI. *Miasto Przyszłości*, 44, 193-195.

3. Ergashevich, E. A., O'G'Li, M. F. A., O'G'Li, O. F. R., & Nilufar, Y. (2023). IQTISODIYOTDA AVTOMATLASHTIRILGAN ISH JOYLARINING QO'LLANILISHI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 688-696.

4. Ergashevich, E. A., & Diyorbek, J. (2023). AXBOROTLASHGAN JAMIYAT VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *TADQIQOTLAR*, 28(3), 74-77.

5. Ergashevich, E. A., & Zufar o'g'li, A. M. (2023). Elektron To'lov Tizimlarining Iqtisodiyotda Tutgan O'rni. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 1(4), 113-116.

6. Ergashevich, E. A., & Nasimjonovich, N. N. (2023). Geografik Axborot Tizimlarining Turli Sohalarda Qo'llanilishi. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 1(4), 166-169.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10844813>

ОИЛАДА БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ВА МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАР РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

Алмарданов Жўрабек Бобоназарович

Термиз иқтисодиёт ва сервис университети ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада оилада болаларни миллий ва маданий қадриятлар руҳида тарбиялаш педагогик муаммо сифатида ҳақида маълумот берилган.

Калим сўзлар: Миллий менталитети, одоб, ахлоқ, илмлилик, изланувчанлик, меҳнатсеварлик, камтарлик, хушмуомалалик, ишонч, садоқат, вафодорлик, меҳр оқибат, болажонлик, меҳмондўстлик, катталарга ҳурмат, кичикларга иззат, дўстлик, бурч ва мажбурят.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о воспитании детей в семье в духе национальных и культурных ценностей как педагогической проблеме.

Ключевые слова: Национальный менталитет, порядочность, нравственность, ученость, любознательность, трудолюбие, смирение, вежливость, доверие, верность, доброта, ребячество, гостеприимство, уважение к взрослым, честь к детям, дружба, долг и обязанность.

“Жамиятнинг энг олий бойлиги бўлган ҳалқ абадий қадриятларни қудратли салоҳиятни ўзида жамлаган. Бу салоҳиятни юзага чиқариш, жамиятни

ривожлантириш тараққий этиришнинг кучли омили бўлиб хизмат қилади”. “Маълумки ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган .Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳаёт момот масаласига айланиб бормоқда”(Ш Мирзиёев.)

Жамиятни энг муҳим ҳужайраси ҳисобланган оила никоҳдан бошланади. Оила, эр ва хотиннинг ихтиёрий ўз хоҳиш ва истакларига кўра тенг ҳуқуқликка асосланган никоҳ тузиш орқали вужудга келади.

Миллий менталитетимизга кўра оиланинг ташкил топишида ота оналарнинг розилиги оиланинг мустаҳкам бўлишида муҳим омилдир. Оила бу жамиятни кичик бир бўғини бўлсада давлат ва жамият тараққиётини ривожланишида муҳим рол ўйнайди давлатчилигимизнинг энг қадимги даврлариданоқ оила масаласига алоҳида эътибор билан қарашган. Зардўштиларнинг муқаддас китоби Авестода ҳам эркак ва аёлнинг тенг ҳуқуқлиги давлат ва жамият бошқаруви ва бола тарбиясида биргаликдаги фаолияти қайд этилган. Мустақилликка эришган кунимиз биз учун энг улуғ бахт бўлдики, ҳар-бир оиланинг турмуш тарзи ва кундалик ҳаётида миллийлик, миллий қадриятлар қайта жонланди. Собиқ шўролар даврида миллийлигимизга, миллий қадриятларимизга, мафкуравий жиҳатдан тажовуз қилиниб, байрамларимиз, урф -одатларимиз, анъана ва маросимларимизнинг илдизига болта урилган эди. Мустақиллик бизга том маънода ўзлигимиз қадриятларимиз ва байрамларимизни қайтариб берди.

Шарқона миллий оиланинг ўзаги одоб, ахлоқ, илмлилик, изланувчанлик, меҳнатсеварлик, камтарлик, хушмуомалалик, ишонч, садоқат, вафодорлик, меҳр оқибат, болажонлик, меҳмондўстлик, катталарга ҳурмат, кичикларга иззат, дўстлик, бурч ва мажбурятни ўз ичига олади. Оилада миллий қадриятларни фарзандларга ўргатиш имкониятига эга бўлдики, миллий қадрият кишилиқ тарихида инсон, инсоният, жамият, давлатлар, этник бирликлар, уруғ, қабила, элат, миллатларнинг келиб чиқиши уларнинг миллийлиги билан изоҳланади.

Тарихга назар ташласак, давлатлар ўртасидаги миллий кадриятлар ҳам бир - бирига ўхшаб кетади, мисол учун Хитойда Конфуций таълимотида оила ва никоҳ, фарзандлар тарбияси ҳақида яхши фикрлар бор. Конфуций фикрича, дунёдан бефарзанд ўтиш ва ўзидан насл қолдирмаслик нафақат шу инсоннинг ёки хонадоннинг, балки бутун бир жамиятнинг фожиасидир.

Оила қонунларига кўра оила таркибининг кенгайиши, камол топиши, фарзандларни туғилиши кўпайиши билан белгиланади. Ёруғ дунёда ҳаёт бор экан, оила бор экан- фарзанд бор, фарзанд бу бебаҳо неъмат бор экан, одамзот ҳамisha эзгу интилишлар билан яшайди. Оилавий муносабатларда оиладаги муҳит тарбияга қараб аниқланади. Таълимни тарбиядан. тарбияни эса таълимдан, ажратиб бўлмайди, бу шарқона қараш ҳаёт фалсафаси ҳақида фикр юритганда Абдулла Авлонийнинг “Тарбия биз учун ё ҳаёт, ё момот, ё нажот, ё ҳалокат,ё саодат, ё фалокат масаласидир” деган чуқур маъноли сўзларини ёдга оламиз, Тарбия жараёни туғилган кундан бошланади ва умрининг охирига қадар давом этади. А. Авлоний тарбиянинг доирасини кенг тушунади. Уни биргина ахлоқ билан чеклаб қўймайди. „Соғ танада соғ ақл деган ҳикматни бежиз эмаслигини яхши билади”. Баданнинг саломат қувватли бўлмоғи инсонга энг керакли нарсадур, чунки ўқимок, ўрганмоқ, ва ўргатмоқ учун инсонга кучлик, касалсиз жасад лозимдур.” Инсонлар турмуш тарзида миллийлик шарқона одоб, ахлоқ асосида намоён бўлади¹.

Оилада , миллий тарбия тушунчаси кўп қиррали тушунчадир. Миллий кадриятлар асосида олиб борилиши, умуминсоний тарбияниг ҳар бир халққа мос бўлиши, ЮНЕСКО тамойили асосида халқ маданиятини ривожлантириш миллатлараро муносабатларда тинч -тотув яшаш, халқларни ҳақ- ҳуқуқларини, урф-одат ва маросимларини ҳурмат қилиш қоидаларига асосланади. Оилада кекса ёшли бобо ва момоларнинг бўлиши ўша хонадондаги бобо ва момоларнинг

¹ А. Авлоний Танланган асарлар Т „ Маънавият” 1998 й 31.6

ўрни улғаяётган фарзандларни тарбиясида яққол кўзга ташланади, ахлоқий, ақлий, миллий, меҳнатсеварлик тарбияси ва панд -насиҳатлари билан фарзандларда инсоний фазилатларнинг шаклланишида бурч ва масъулиятни англашида ўз ҳиссасини қўшадилар, набираларига тўғри йўл кўрсатади.

Катталарни ҳурмат қилиш, кичикларни иззат қилиш, одоб, одатларни билишга яқиндан ёрдам беради. Урф- одат, маросим, байрамлар ҳар бир оилада нишонланади. Қариси бор уйнинг париси бор деганлари рост . Тўйларда ва байрамларда кексалар бор жойда файз барака бўлади, чунки улар юрт тинчлигини, осайишталигини, фарзандларнинг соғлиги, илмли инсон бўлишини, оллоҳдан сўраб дуо қиладилар, хонадонларда тинчликни, меҳр-оқибатни, оға -инилик, қон -қариндошлик, ришталарини мустаҳкамлашда ўз эзгу ниятлари билан, фарзанд тарбиясида муносиб ҳисса қўшадилар.

Янгилиниш жароёнининг бошланиши шамсия, Қуёш йили ҳисобига тўғри келади бу кун “Наврўз” деб аталган. Абу Райхон Беруний бундай ёзади, Наврўз янги йилнинг биринчи куни бўлиб Эронликлар зижлари бўйича ўтмиш замонларда улар йилларини кабисам қилган вақтларида Қуёшнинг саратон буржигига киришга тўғри келар эди сўнгра у орқага сурилгач, баҳорда келадиган бўлди. Баҳор ёмғирининг биринчисини тўкишидан бошланади гуллар очилади ўсимликлар униб чиқа бошлангунча давом этган вақтга тўғри келади.” Берунийнинг таърифича, афсунгарлар Наврўз куни бировга гап қўшишдан олдин асал уч қошиқ ялаб уч бўлак мум тутатса, бу кўп касаликка шифо бўлармиш. Ёки шу куннинг тонгида гап гапиришидан олдин шакар тотиб, ўзига зайтун тутган кишидан йил бўйи турли балолар даф этилади деган иримлар бўлган¹.

¹ Абу Райхон Беруний Ўтмиш халқлардан қолган ёдгорликлар 1957 й., 43 б.

ФОЙДАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Алмарданов, Ж. Б. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ВА МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ҲУРМАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(3), 479-481.

2. Almardanov Zhurabek Bobonazarovich (2021). *THE ROLE AND INFLUENCE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN THE DEVELOPMENT OF RESPECT FOR NATIONAL AND CULTURAL VALUES IN CHILDREN IN THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT. European science*, (4 (60)), 53-56.

3. Алмарданов Журабек Бобоназарович (2020). Механизмы воспитания уважения к национальным и культурным ценностям у детей в образовательной среде. *Вестник науки и образования*, (7-2 (85)), 92-94.

4. Almardanov, J. R. B. (2023). *QADRIYATLAR MAZMUNI VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALASI. Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 103-105

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10844861>

O‘ZBEK TILIDA INSON TASHQI KO‘RINISHIGA XOS SIFAT LEKSEMALARNING O‘RGANILISHIGA DOIR

Altibayeva Malika Kuvandikovna
Alfraganus universiteti 2-kurs magistri,
lingvistika yo‘nalishi

ANNOTATSIYA

O‘zbek tili sifat kategoriyasining ilmiy tahliliga bag‘ishlangan mazkur maqolada tashqi ko‘rinishga xos sifatning umumiy xarakteristikasi, uning semantik turlari, strukturasi, darajalari ilmiy asosda o‘rganiladi. Sifatning o‘ziga xos maxsus morfologik belgisining yo‘qligi, sifat yasovchi affikslarning nihoyatda turli- tumanligi ba‘zan sifatlarni aniqlashda ma‘lum qiyinchilik tug‘diradi. Ayrim so‘zlar tashqi ko‘rinishidan otga ham, sifatga ham, ravishga ham juda o‘xshash bo‘ladi. Bunday paytlarda ko‘pincha u so‘zni otlar yoniga qo‘yib turib sifatligi aniqlanadi. Aynan, mazkur maqola inson tashqi ko‘rinishiga xos sifat leksemalarning tavsiflanishi, yasalishi, inventari, leksik-semantik tasniflari, boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishda semantik-sintaktik, nominativ so‘z birikmalari tarkibidagi funksiyalari, muloqot jarayonidagi pragmatik xususiyatlari ilmiy jihatdan tadqiq qilinishga qaratilgan.

***Kalit so‘zlar:** leksik-semantik, pragmatika, kognitiv, ekspressiv-emotsional, stilistik bo‘yoqdorlik, ot kategoriyalari, sifatdoshlik belgisi.*

ОБ ИЗУЧЕНИИ СПЕЦИФИЧЕСКИХ ЛЕКСЕМ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ОБЛИГАЦИИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье, посвященной научному анализу качественной категории узбекского языка, на научной основе изучаются общие характеристики обликово-специфического качества, его семантические типы, структура и уровни. Отсутствие специального морфологического признака качества, крайнее разнообразие качествообразующих аффиксов иногда вызывают определенные трудности при определении качества. Некоторые слова очень похожи на существительные, прилагательные и наречия. В таких случаях качество определяется путем постановки слова рядом с существительным. В частности, данная статья представляет собой научное исследование описания, формирования, инвентаризации, лексико-семантических классификаций прилагательных лексем, характерных для внешности человека, семантико-синтаксических функций в связи с другими словами, номинативных словосочетаний, прагматических особенностей в процессе общения. нацелен на то, чтобы быть сделанным.

Ключевые слова: лексико-семантическая, прагматика, когнитивная, экспрессивно-эмоциональная, стилистическая окраска, именные категории, адъективный признак.

IN THE UZBEKI LANGUAGE, THE LEXEMAS SPECIFIC TO PERSONAL APPEARANCE ARE SUBJECT TO LEARNING

ABSTRACT

In this article, dedicated to the scientific analysis of the adjective category of the Uzbek language, the general characteristics of the appearance-specific adjective, its semantic types, structure, and levels are studied on a scientific basis. The lack of a special morphological sign of quality, the extreme diversity of quality-forming affixes sometimes cause certain difficulties in determining quality. Some words look very similar to nouns, adjectives, and adverbs. In such cases, quality is determined by putting the word next to

nouns. Specifically, this article is a scientific study of the description, creation, inventory, lexical-semantic classifications of adjective lexemes characteristic of human appearance, semantic-syntactic functions in connection with other words, nominative word combinations, pragmatic features in the process of communication. aimed at being done.

Key words: lexical-semantic, pragmatics, cognitive, expressive-emotional, stylistic coloring, noun categories, adjective sign.

Kirish.

Til inson va borliq o'rtasidagi ko'prik, inson olamni idrok etishidagi eng muhim vosi ta sifatida xarakterlanadi. O'zbek tilshunosligida bir necha tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramasdan, filologik bilimning ushbu sohasida hal qilinmagan muammolar yetarli.

O'zbek tilshunosligida belgi bildiruvchi so'zlarning muloqotdagi o'rni, qardosh tillardagi belgi xususiyat leksemalariga munosabati, qardosh bo'lmagan tillar leksemalarini chog'ishtirishga bag'ishlangan tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Belgi bildiruvchi tushunchalar tilning shakllanish jarayoni bilan bog'liq. Inson olam manzarasini tilida ifoda etar ekan, dastavval, narsa buyumlarning belgilariga – tashqi ko'rinishi, rangi, agregat holati, shakliga e'tibor qaratgan.

O'zbek tili morfologiyasida, boshqa so'z turkumlari qatori sifat ham katta o'rinni egallaydi va o'zining leksik-grammatik va semantik xususiyatlariga ko'ra mustaqil so'z turkumi sifatida ajratilgan. So'z turkumlari tizimida o'zining sermahsul va qo'llanilish doirasi bilan ajralib turadigan sifat so'z turkumining atash ma'nosi predmet, voqea-hodisa, holat va qisman ish-harakatning belgisini bildirishdir. Belgining o'zi bir necha xil bo'ladi. Masalan, xarakter-xususiyat, shakl-ko'rinish, holat, rang-tus, mazata'm, hid, o'rin va payt kabi belgilardir. Belgi ifodasi nafaqat sifatlarga, balki boshqa so'z turkumlariga ham xosdir. Masalan, ot ham matnda sifat kabi belgi ifodalashi mumkin: farishta qiz, arslon yigit, burgut ko'zli va hokazo. Ayrim

sifat xarakteridagi olmoshlar ham sifat kabi belgi ifodalash imkoniga ega: hamma o'quvchi, barcha xalq, hech bir inson kabi. Ravish belgi bildirishiga ko'ra sifat bilan mushtaraklik hosil qiladi, ya'ni ravish ham sifatlardek predmet belgisini ifodalab keladi: mardona jang, do'stona uchrashuv, beto'xtov harakat va hokazo.

Sifat so'z turkumining o'ziga xos lingvistik xususiyatlaridan biri uning polesemantik xususiyatidir. Polesemantika bu –formal tilshunoslikda bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zni farqlaganligi kabi nazariy leksikologiyada bir sememali va ko'p sememali leksema farqlanadi. Nutqda qo'llangan so'z har doim bir ma'noli. Chunki, so'z leksemaning bir martalik ko'rinishi bo'lib, u leksemaga zid ravishda betakrorlik tabiatiga ega. Nutqimizni boyitib turgan leksemalar tarkibida ma'lum narsa asosida shakllangan sifatlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Ayniqsa, buni tashqi ko'rinish, rang-tus, maza-ta'm bildiruvchi sifatlar misolida ko'rishimiz mumkin. (Masalan: zahar, asal, shakar, simobi, yoqut, qo'ng'ir va b.)

So'z turkumlari tizimida o'zining sermahsul va qo'llanilishi bilan ajralib turadigan sifat so'z turkumi predmet, voqea-hodisa, holat va qisman ish-harakatning belgisini bildirishi bilan asoslidir [2; 43 b.].

Turkiyshunoslikda sifat so'z turkumiga oid so'zlarning o'rganilish tarixi, sifatning belgi xususiyatlari, ularning turli tashbehlar va badiiy asarlarda belgi bildiruvchi so'zlar tasvirlovchi vosita sifatida e'tirof etilishi tadqiq qilingan. O'zbek tilida sifat leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra mustaqil so'z turkumi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Sifat leksemalarni yoritishda funksional-semantik xususiyatlar so'ngi yillarda dolzarblashmoqda. Sifatlarni turli aspektlarda tasniflash muammolari hamon dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. **Har qanday pragmatik ma'noda madaniy sema aks etadi. Leksik ma'no sememadir, semema esa semalardan iborat bo'ladi. Semalar tarkibida tashqi muhit bilan bog'liq, pragmatik ma'no orqali ifodalanuvchi madaniy semalar bo'ladi. Leksema semantikasidagi semalar tahliliga asoslangan**

holda badiiy matn misolida o‘zbek va rus tillaridagi belgi bildiruvchi leksemalarning lingvokulturologik xususiyatlari yoritildi.

USUL-METOD

Maqolani yoritishda chog‘ishtirma, analiz, sintez, tavsifiy, statistik va komponent tahlil usullaridan foydalanilgan. Turli tillardagi belgi bildiruvchi leksemalar semantikasida olam manzarasining universal tasviri bilan bir qatorda milliy-madaniy xususiyatlar bilan belgilanuvchi mental ifodasi ham namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilida sifat kategoriyasiga xos so‘zlar biror narsa-predmet, voqea-hodisa va holatning belgisi (rang-tusi, hajmi, shakli, xarakteri, vaz ni, qiyofasi, xulq-atvori) ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, inson tashqi ko‘rinishiga xos sifat leksemalar shular jumlasidandir: *chiroyli, husnkor, istarasi issiq, rangi sovuq, sersoqol, ko‘sa, ko‘zi o‘ynagan, so‘yloq tishli kishi va h.k.*

Sersoqol yuzi soqol bilan qoplangan, qulog‘idan iyagigacha chuqur chandiقدan iborat edi.

Mard bo‘lsa, so‘yloq tishlining o‘zi gaplashsin! Onasini elchi qilishga balo bormi? (O‘. Hoshimov).

MUHOKAMA

Mazkur maqolaning asosiy o‘rganish obyekti bo‘lgan mazkur o‘zbek tilidagi inson tashqi ko‘rinishiga xos sifat leksemalarning tavsiflanishi, yasalishi, inventari, leksik-semantik tasniflari, boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishda semantik-sintaktik, nominativ so‘z birikmalari tarkibidagi funksiyalari, muloqot jarayonidagi pragmatik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish zarurati kuchaymoqda.

O‘zbek tili morfologiyasida boshqa so‘z turkumlari qatori sifat ham katta o‘rin egallaydi. Sifat o‘zbek tilida o‘zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra mustaqil so‘z turkumi sifatida ajratilgan.

Tilda sifatlarning otlashib kelishi o'ziga xos grammatik qoidani tashkil qiladi, ba'zi bir so'zning ham ot, ham sifat, ham ravish vazifalarida qo'llana olish xususiyati ham e'tirof etiladi.

V. N. Teliya ko'sa, qari, nuroniy, kasal, betob va shu kabi leksemalarni sifat deb hisoblash mumkin, chunki u predmet belgisini bildiradi. Sintaktik jihatdan esa xuddi shu sifat tarzida ham, ot tarzida ham qo'llana olishi mumkinligi bilan izohlana oladi [3; 101 b.].

Bir qator turkologlar o'zlarining tadqiqot kuzatuv natijalari asosida turkiy tillar sistemasida sifatlarning alohida so'z turkumi ekanligiga shubha bilan qaraganliklari haqida fikr mavjud. Masalan, nemis olimi V. Glushak sifat va ot kategoriyalarini tashqi formalariga asoslanib, biri o'rniga qo'yib tekshirgan. Shuningdek, nemis turkolog olimi S.Hartlmayer ham ot va sifatni bir-biridan ajratmagan [5; 201, 218 b.].

Bizning fikrmizcha ot bilan sifat o'rtasida grammatik jihatdan dastlab hech qanday farq sezilmaydi. Har ikkala grammatik kategoriya ham ot turkumidan kelib chiqadi. Aytish mumkinki, biri predmet nomini anglatrsa, ikkinchisi belgi nomini anglatishi bilan izohlanadi.

Ikki otning yonma-yon kelib uchinchi otni aniqlashi ham yuqoridagi fikrlarni dalillasa, ajab emas.

Masalan, **xum kalla (kalla xum) bola, anor yuz qiz, bez bet odam, sepkil yuzli ayol** va sh. k. Bunday hodisalarda endi ikki ot qo'shilishidan bir ma'no anglatuvchi qo'shma sifat yasaladi.

Otlashgan sifatlar ko'chma, emotsional-ekspressiv ma'nolarida qo'llanilib, aniqlovchi vazifasini o'taydi. M., Anvar birinchi qarashdayoq **Alp qomat**, ko'zga **do'ndiq** va **ko'rkam ko'rinar** edi. **Qora surmalik ko'zi** Ra'noda ekan, o'ziga yugurib kelguchi Mansurga yo'l ustida cho'nqayib quchog'ini ochti.

Ba'zan ish-harakat belgi-xususiyatini aniqlash uchun qo'llanib, ravishlik vazifasini ham bajaradi: Anorbibi **mehnat bilan yashab**, yetti-sakkizni tug'ib, **yoshi ham**

qirqlarga borib, tusiga ajin kirib, keksaymasa ham qarimsiq bo‘lib qolg‘an, shuning uchun ham birartaga tegib olish to‘g‘risida o‘ylash ham behuda.

Tilning tahlili va elementlarini o‘rganishda uning asosini tashkil qiluvchi tomonlardan biri leksikani, ikkinchi tomondan grammatik qurilish – morfologiya va sintaksisni doimo bir-biriga bog‘lab tadqiq qilish muhim hisoblanadi. Tilning deyarli barcha hodisalariga ham leksik, ham grammatik nuqtai nazardan yondashish joiz, chunki leksikada so‘zning ma‘nolar uzviy aniqlansa, har bir kategoriyada leksemalarning grammatik mohiyati, mantiqiy jihati kuzatiladi.

Sifat kategoriyasini tahlil qilishda so‘zlarning birgina tomonini emas, balki leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini nazardan qochirmaslik lozim.

Inson tashqi ko‘rinishiga xos sifatlarning ma‘noviy guruhlarini insonning turli belgi-xususiyatlari ya‘ni tashqi ko‘rinish, intellektual, ijtimoiy belgilarini ifodalashda faol qo‘llanadi [4; 71 b.]. Tashqi ko‘rinishga xos sifat leksemalar, odatda inson tashqi tuzilishi bilan bog‘liq belgilarni bildirib keladi. Tashqi ko‘rinish sifatlardan bir turkumi inson, bir turkumi predmet va hayvonlarning tashqi ko‘rinishini ifodalashda umumiy qo‘llanadi, bir turkumi esa faqat inson tashqi ko‘rinishi yoki predmet xossasini ifodalashga xos bo‘lib qolgan.

Bunday sifatlari ijobiy va salbiy yoki neytral holatda bo‘lishi mumkin [2; 91]:

Insonning tashqi ko‘rinishiga xos sifatlarni quyidagi leksik-semantik guruhlariga bo‘lib o‘rganish yanada uning ma‘noviy xususiyatlarini oydinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Insonning tana qismini sifatlash: **soqolli kishi, junli oyoqlar, barvasta kishi, yaralangan yuz, go‘shli bashara** va h.k.: Maxdum **bo‘ychan, olago‘sh, siyrak mo‘y, oq tan, istarasi issig‘** domla edi.

2. Insonning yuzini ifodalovchi sifatlari: yumaloq, cho‘zinchoq, sepkilli, silliq yuz, kulcha yuz, oyparcha, go‘shdor bashara, sersoqol, ko‘sa, va h.k.: **Yuzi cho‘ziq ham emas, oy kulcha** ham deb bo‘lmas, kishiga kulib qarag‘anda **qizil olma ostlarida**

ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo'lar, go'yo bizga **chin ra'no guli ochilgan** holatda ko'rinar edi.

3. Inson qiyofasini ifodalovchi sifatlar - shaxsni tavsiflovchi sifatlar ham uning figurasini tasvirlashda yordam beradi: nozik, o'rtacha, to'liq, semiz, do'mboq, to'la, to'liq, yumaloq yelkali, bukilgan, keng yelkali, alp qomatli, tor yelkali va sh. k.: Uning qora zulfi par yostiqlarning turli tomoniga tartibsiz suratda to'zg'ib, tiniq yuzi, quyruq jingila kiprik ostidagi tim qora ko'zlari bir nuqtaga tikilgan-da, qop-qora, o'tib ketgan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lgan oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizillikka aylangan-da, kimdandir uyalgan kabi.... (A.Qodiriy).

Shaxsni tavsiflovchi sifatlar ham uning figurasini tasvirlashda yordam beradi. Shaxsning figurasini shakllanishi uning jinsiga bog'liq emas, balki o'sish nisbati, skelet tuzilishi va teri osti yog'ining cho'kishi va shu k. Shuningdek, insonning o'sishi haqida gapiradigan bo'lsak, unda u past, o'rta, yuqori va juda yuqori bo'lishi mumkin, fizik jihatdan esa, yuqorida ta'kidlangan semiz, to'liq, alpqomat, chayir va h.k. kabi leksemalar bilan sifatlanishi kuzatiladi.

4. Inson oyoq-qo'llarini tasvirlovchi sifatlar: ingichka barmoq, sergo'sht bilak, nozik barmoq, uzun qo'l, va b.: Keskir laqabli bu yigit **sergo'sht bilakli, ko'rsatkich barmog'i kertilgan, kelishgan, do'ndiq** bola edi (O'. Abduraxmimov).

Sifat leksemalar juda ko'p frazeologik, idiomatik iboralar, maqol, matallar tarkibida qo'llanib, ko'chma va qo'shimcha ma'nolar kasb etadi hamda pragmatik hodisani yuzaga keltiradi. Masalan, "...bir qoshiq suv bilan yutib yuborgudek" – ushbu frazema lug'atlarda qayd etilgan bo'lib, "beqiyos go'zal, nihoyatda dilrabo" ayollarga nisbatan ijobiy ma'noda qo'llaniladi [6; 87 b.].

M., Kipriklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi. Qoshi tutash kabi ko'rinsa ham ko'ndalang yotqan ikki qilich orasini nafis bir quyulib ko'tarilishi ajratib turar edi, **yuz ko'ziga rassomning san'ati yetmas darajada, bir qoshiq suv bo'lsa asal kabi qo'shib ichilsa**

Aytish o‘rinliki, qizil ko‘zli qarg‘a (ovqatga nisbatan nafsini jilovlay olmaydigan); oq bilak qiz (olifta, tannoz); qora qo‘l (qo‘li nimaga tegsa sindiradigan, buzadigan); qo‘li uzun (puldor shaxs); rangi sovuq (xarakteri og‘ir, urishqoq); rangi sarg‘aygan (betob); yuzi so‘lg‘in (ikki ma‘noda bo‘lishi mumkin: betob va hafsalasi pir bo‘lgan); istarasi issiq (kelishgan, rahmdil); tepa sochi tikka bo‘lmoq (jahli chiqmoq); ochiq yuz bilan (yaxshi kayfiyat bilan, xushtabiatlik bilan), chehrasi ochiq (xushtabiat, kayfiyati yaxshi, insonning fe‘l-atvoriga nisbatan ishlatiladi); dil tortar (yoqimli); tog‘ni talqon qiladigan frazemasi (zabardast, pahlavon); og‘zidan bol tomadi (shirinsuhan); qattiq qo‘l (talabchan); ko‘zi ko‘r (zukkoklik bilan fahmlay olmaydigan); ko‘zi ochilmoq [1; 61 b.] (kech anglamoq) inson tashqi ko‘rinishiga xos sifat leksemalar turli lisoniy shakllar hosil qilishi natijasida muloqot jarayonida inson ongida turfa stilistik, pragmatik va kognitiv modellar yasalishiga zamin yaratadi.

Shuningdek M.Sodiqova sifatlarning belgi darajasining ortiqligini ko‘rsatishda to‘rt: morfologik (affiksatsiya), leksik, leksik-semantik hamda fonetik usullarga bo‘lib o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi

Morfologik usulda belgining ortiqlik darajasini ifodalashda qo‘llanuvchi intensiv forma biror predmet belgi-xususiyatini boshqa predmetdagi shunday belgi-xususiyat bilan qiyos etilmagan holda ortiqligini ifodalashga xizmat qiladi: chiroyli (chip-chiroyli); oq (oppoq); qora (qop-qora):

Kelining Nozimaxon esa u darajada xunukmas, chip-chiroyli qiz ekan (Ch. Aytmatov).

Leksik usul bir necha turlarga bo‘linadi. Ma‘noni kuchaytirish uchun sifat leksemalar oldidan maxsus kuchaytiruvchi so‘zlar qo‘llaniladi: juda, g‘oyat, nihoyatda, biram, benihoya, cheksiz, beqiyos, behad, naqadar: juda aqlli, g‘oyat nafosatli, nihoyatda razil, biram mulozamatli, benihoya muloyim, naqadar tuban kabilar.

U sersavlat, nihoyatda istarali, biram xushyor va kuzatuvchan edi (O‘. Umarbekov).

Leksik-semantik usulda ma'noni kuchaytirish uchun belgi bildiradigan so'zlar qo'llaniladi. Ba'zan bu so'zlar takrorlangan, qo'shma, affiks olgan holda keladi: ko'likkina odam – ko'rkam odam, kalta qiz – pakana qiz, bo'sh odam – latta odam, devdek yigit – alpomish yigit va h.k.

Siz – Gulnorni yomonlab gapirmang. Siz uchun yomon bo'lsalar, men uchun farishta-malaklar (O'. Abdurahmonov).

Fonetik usul bilan sattaang, chiroyly, maftunkoor, seemiz, ozzg'in (cho'pi), va shu kabilar.

Men seni bu qadar sataangligingni bilganimda, mol-mulkimni ishonmagan bo'lardim-a! (O'. Umarbekov).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili grammatikasida sifat gapning egasi, ega guruhiga bog'lagan holda o'rganiladi. Inson tashqi ko'rinishiga xos sifat leksemalar nafaqat xususiyat, balki xossani ham aniqlaydi. Biror bir aniqlanmishning xossa-xususiyati, o'ziga xosligini belgilash uchun sifat leksemalarga murojaat qilinadi. Har qanday obyekt yoki nom ko'rsatkichi "o'ziga xosligi" yoki "ko'p-qirraligi"ni sifatlarsiz belgilay olmasligi bilan ahamiyatlidir. **O'zbek tilshunosligida belgi bildiruvchi so'zlar sifat va uning leksikmorfologik xususiyatlarini o'rganish asosida tahlil qilingan, xarakterxususiyat bildiruvchi sifat leksemalarning matn bilan bog'liq holdagi konnotatsiyalari o'rganilgan.**

Inson tashqi ko'rinishiga xos sifat leksemalar darajalarga ega bo'lishi uning asosiy grammatik xususiyatlaridan biridir. Har bir narsa-predmet, holat, hodisa hamda ish-harakatning turli-tuman aniq, mavhum belgilari bo'ladi. Bunday belgilar normal yoki shu normallikka nisbatan semiz-ozg'ib, chiroyly-xunuk, baland yoki past bo'lishi mumkin. Belgining bunday xususiyatlari sifatning daraja formalari yordamida ham ifodalanishi tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Abdujaaborova F. “Qutadg‘u bilig”dagi shaxs belgi-xususiyatini anglatuvchi leksika. Filol. fan. nom. diss. avtoref.-Toshkent, 2011.*
2. *Pardayev 3. O‘zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari. Samarqand: 2007. – 132 b.*
3. *Телия В.Н. Русская фразеология. Семантические, прагматические и лингв окултурные аспекты. – М, Языки русской культуры, 1996. – С. 284.*
4. *Tojimatov H. Sifat sememasining reallashuvida kontekst. filol. fan. nom. diss. - Toshkent, 2008.*
5. *Hartlmaier, Sarah Adjektive: Grammatik, Pragmatik,-Berlin, Boston, 2018. S. 201-219.*
6. *Glushak, Vasily Kognitive Grundlagen der Adjektive im Russischen, Deutschen und Litauischen [VerfasserIn] – München, 2002/2017. - S. 123-134.*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10844979>

ХОРИЖДА ЭГОИЗМНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДОШУВЛАР

Karayeva Yulduz Xushbakovna

TerDU psixologiya kafedrası v/b dotsenti,

psixologiya bo'yicha falsafa doktori PhD

Email: karayevayulduz@mail.ru

ANNOTATSIYA

Shaxsning ma'naviy barkamollikka erishishida uning maqsadi, qiziqishlari, motivatsiyasi, xulq-atvor xususiyatlarini o'rganish psixologiya fanining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan psixologik tadqiqotlar oldiga birinchi navbatda xulq-atvorning motivatsion asoslari, unga ta'sir etish omillarni har tomonlama o'rganish zamonaviy psixologiya fanining tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Ana shunday salbiy deb qaraladigan xulq-atvor ko'rinishlaridan biri egoizmni o'rganish psixologiya sohasining alohida yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

***Kalit so'zlar:** egoizm, altruizm, egotsentrizm, egoistik shaxs, hulq-atvor, shaxsning egoistik yo'nalganligi, o'smirlilik davrida egoizm.*

APPROACHES TO STUDYING EGOISM ABROAD

ABSTRACT

Studying a person's goals, interests, motivation, and behavioral characteristics in achieving spiritual perfection is one of the important tasks of psychology. From this point of view, before psychological research, first of all, motivational bases of behavior, comprehensive study of factors affecting it are becoming the object of

research of modern psychology. The study of egoism, one of the manifestations of such negative behavior, is one of the special directions of the field of psychology

Key words: egoism, altruism, egocentrism, egoistic personality, behavior, egoistic orientation of personality, egoism in adolescence.

KIRISH. «Egoizmning mohiyati – o‘zini yoqtirishga yo‘naltirilgan, o‘z shaxsiy manfaatlarini boshqalarnikidan yuqori qo‘yish, jamiyat va atrofdagilar istaklarini e‘tiborga olmaslikka qaratilgan xulq-atvordir» [1;106-120 b].

Brokgauz va Efronlarning ensiklopediyasida egoizm haqida quyidagi fikrlarni o‘qish mumkin: “Egoizm – bu shaxsning axloqiy dunyoqarashi bo‘lib, unga ko‘ra inson harakatlarining yagona motivi shaxsiy farovonlikka intilish bo‘lib, bu boshqa motivlarga ham yetakchilik qilib, ularni o‘ziga bo‘ysundiradi”. S.I.Ojegovning lug‘atida egoizm tushunchasi “o‘zini yaxshi ko‘rish, o‘zining shaxsiy manfaatlarini o‘zgalar manfaatlariga nisbatan ustun qo‘yish, jamiyat va atrofdagilar manfaatlarini mensimaslik”, deb ta’riflangan [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning egoizm tushunchasini mohiyatiga qarashlari hamda adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kungacha egoizm shaxsning eng kam o‘rganilgan xususiyatlaridan biri bo‘lib kelmoqda, egoizmning mazmuni, uning mohiyati to‘g‘risida esa ilmiy tasavvurlarda yagona tushuncha mavjud emas. Egoizmni ta’riflash va uning mohiyatini tushuntirishda turli yondashuvlar bo‘lib, bu tushuncha inson xarakterining xususiyati sifatida, jumladan, shaxs yo‘nalganligi, instinkt, ehtiyojlar, qadriyatlar kabi sinonimik tushunchalar qatoriga kiritilgan. Hozirgi kunda egoizm mohiyatini tushuntirishda psixologiya fanida ikkita qarama-qarshi konsepsiya mavjud bo‘lib, ulardan biri egoizmning biologik tabiatini ta’kidlasa, keyingisi egoizmni o‘z shakllanish jarayonida ko‘proq ijtimoiy omillar ustuvorlik qiladi, deya izohlashadi.

Egoizmning bosh g‘oyasi — o‘zini yaxshi ko‘rish, o‘zining shaxsiy manfaatlarini o‘zgalar manfaatlariga nisbatan ustun qo‘yish, jamiyat va atrofdagilar manfaatlariga

e'tiborsizlik munosabatni namoyon etadigan shaxs xulq-atvorining ko'rinishidir [3; 939-b.].

Egoizm mohiyatini tushuntirishda va izohlashda olimlar turlicha yondoshganligini kuzatish mumkin. Jumladan, ingliz faylasufi Djeremi Bentamning ta'rificha, egoizm bu odamni o'zini rohatlantirish, yoqimli kechinmalarni kechirish yoki yoqimsiz tuyg'ulardan voz kechishga qaratilgan xatti-harakatlar yig'indisidir [4;1973-b.]. Sovet ensiklopedik lug'atida egoizm (fransuzcha egoisme, lotincha ego — men) – o'zini yaxshi ko'rish; butunlay o'z foydasi, manfaati bilan belgilanadigan xulq, o'z ehtiyojlarini boshqalarnikidan yuqori qo'yish, deb ta'riflangan [5;] Xorij ensiklopedik lug'atida egoist bu – xatti-harakatlarida rohatlanish va zavq olishga moyil bo'lgan shaxs ko'rinishidir, deb izohlangan [5]. M.Yu.Kondratev tahriri ostidagi ijtimoiy psixologik lug'atda esa egoizm tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Egoizm” (lot. ego — men) subyektning qadriyatli yo'nalishi bo'lib, boshqalar va ijtimoiy guruhlarining manfaatlaridan qat'iy nazar o'z shaxsiy manfaat va ehtiyojlarining ustunligi bilan tavsiflanadigan xulqdir [6;176-b.]. Ta'rifdan ko'rib turganimizdek, egoistik xulq - atvorga ega shaxs faqat o'zini o'ylaydi, boshqalarga esa o'zining maqsadlariga erishish vositasi sifatida munosabatda bo'ladi.

NATIJALAR: Psixolog K.Muzdybaevning fikricha, egoizmga moyillik shaxsning yosh xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, inson yoshi ulg'aygan sari, egoizmga moyillik darajasi ham pasayib ketadi. Hozirgi kunda psixologiyada shaxsning egoistik hulq ko'rinishlarini o'rganish bo'yicha adabiyotlar yetarli emas, uni eksperimental o'rganishga bo'lgan ehtiyoj esa psixodiagnostik metodikalarga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Ye.P.Ilinning “Psixologiya pomoshchi. Altruizm, egoizm, empatiya” nomli kitobida egoizmni o'rganishga oid bo'lgan bir necha metodikalar berilgan bo'lib, ulardan O.F.Potyomkinaning “Shaxsning motivatsion ehtiyojlar sohasidagi ijtimoiy psixologik ustanovkalarni diagnostika qilish” (Altruizm, egoizm shakallari asosida), “Altruizm – Egoizm” testi, K.Muzdybaevning “Dispozitsion egoizm shkalasi” shular jumlasiga kiradi.

Egoizm va shaxs xususiyatlari orasidagi bog'lanishlar

(Mann-Uitni mezoni asosida)

	Egoizm	Ekstraversiya	Neyrotizm	Yolg'on (Ayzenk bo'yicha)	Vijdonlilik	Da'vogarlik darajasi	O'z-o'zini baholash	Qabul-qilish	Hamkorlik	Simbioz	Avtoritar	Kichik omadsiz	Altruizm
Egoizm	1												
Ekstroversiya	-,141*	1											
Neyrotizm	,127	,132	1										
Yolg'on (Ayzenk bo'yicha)	,160*	-,131	-,347**	1									
Vijdonlilik	-,332**	,182**	,124	,065	1								
Da'vogarlik darajasi	-,014	,099	,045	,098	,122	1							
O'z-o'zini baholash	-,228*	,186**	-,019	,063	,137*	,168*	1						
Qabul qilish	,131	,074	,269**	-,069	-,045	-,142*	,057	1					
Hamkorlik	-,134*	-,042	,003	-,014	-,042	,041	-,050	-,276**	1				
Simbioz	-,192**	-,013	-,072	,001	-,019	-,023	-,159*	-,175**	,378**	1			
Avtoritar	-,108	-,128	-,126	,043	-,090	,106	-,198**	-,414**	,436**	,383**	1		
Kichik omadsiz	,160*	,070	,102	,136*	-,127	-,104	,071	,678**	-,369**	-,102	-,244**	1	
Alruizm	-,268**	,238**	,155*	-,205**	,339**	,058	,265**	,041	,108	,109	,019	-,090	1

* - $p \leq 0.05$; ** - $p \leq 0.01$

MUHOKAMA: Shaxsda egoizm qanchalik yuqori bo'lsa, ekstrovertlik shunchalik kam bo'ladi, ya'ni introvert insonlar ko'proq egoist bo'lishadi ($r=-0,141$; $p \leq 0,05$). Bizga ma'lumki, introvertlarning «Men»i ichkariga o'zlariga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ular ko'proq o'zlarini o'ylaydilar.

Egoizm va yolg'onchilik orasida musbat bog'lanish aniqlandi ($r=0,160$; $p \leq 0,05$). Shaxsda egoizm qanchalik yuqori bo'lsa, yolg'onchilik ham shunchalik ko'p bo'ladi.

Egoist o'smirlar ko'proq yolg'onchi bo'lishadi, ular ko'proq o'zlarining foydalariga, vaziyatdan chiqish uchun himoya mexanizmi sifatida yolg'ondan ko'proq foydalanadilar.

Egoizm va vijdonlilik orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ($r=-0,332$; $p\leq 0,01$). Shaxs qanchalik ko'p vijdonli bo'lsa, unda egoizm shunchalik kam bo'lar ekan. Vijdonlilik axloqiy kategoriya bo'lib, insonning oliy hislari bilan bog'liq.

Egoizm va o'z-o'zini baholash orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ($r=-0,228$; $p\leq 0,05$). Shaxsda egoizm qanchalik yuqori bo'lsa, u o'zini shunchalik past baholaydi. O'zini past baholash, odam o'zini boshqalardan ustun emasligini tan olish, boshqalarning manfaatlari uchun o'z manfaatlarini e'tiborsiz qoldirishi, o'zini har tomonlama, sababsiz qurbon qilishidir.

Egoizm va hamkorlik orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ($r=-0,134$; $p\leq 0,05$). Ota-ona farzandi bilan qanchalik ko'p hamkorlikda faoliyat yuritsa, egoizm shunchalik kam bo'lar ekan. «Kooperatsiya» – ota-ona-bola munosabatlari tizimidagi o'zaro hamkorlikni anglatadi. Bunda ota-ona o'z farzandining hayoti bilan qiziqadi va doim uni qo'llab-quvvatlaydi. Demak, ota-ona farzandining o'qishi, qiziqishlari, do'stlari bilan qiziqib hamkorlikda faoliyat yuritsa, shaxsda shunchalik egoizm kam shakllanar ekan.

Egoizm va simbioz orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ($r=-0,192$; $p\leq 0,01$). Ota-ona farzandi bilan qanchalik ko'p simbiotik munosabatda bo'lsa, egoizm shunchalik kam bo'lar ekan. «Simbioz» – mazkur shkalaga tegishli savollar orqali ota-onaning o'z farzandi bilan bir tan-u, bir jon bo'la olishi nazarda tutiladi. Ota-onaning farzandiga doimo g'amxo'rlik qilishi, u haqida doimo qayg'urishi, farzandda egoistik xulq-atvorning rivojlanmasligiga olib kelar ekan.

Egoizm va «kichik omadsiz» shkalasi orasida musbat bog'lanish aniqlandi ($r=0,160$; $p\leq 0,05$). Ota-ona farzandi bilan qanchalik «kichik omadsiz» munosabatida bo'lsa, egoizm shunchalik ko'p bo'lar ekan. «Kichik omadsiz» – bunda ota-ona o'z farzandining muvaffaqiyatsizligini qanday qabul qilishi nazarda tutiladi, ya'ni ota-ona

o‘z farzandini boricha qabul qiladimi yoki uni doim tanqid qilib qabul qiladimi, shu holat bo‘yicha ota-onaning bolaga emotsional munosabati aniqlanadi.

Egoizm va altruizm orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi ($r=-0,268$; $p\leq 0,01$). Shaxsda qanchalik egoizm kuchli bo‘lsa, unda altruizm shunchalik kam bo‘ladi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, jamiyatda shaxsning ma’naviy kamoloti hamma vaqt ham muhim masalalardan bo‘lib kelgan. Shaxs psixologiyasini o‘rganar ekanmiz, uning ma’lum bir xususiyatlari va hulq ko‘rinishlarini bevosita kuzatish orqaligina o‘rganib bo‘lmasligiga ishonamiz, chunki bu xususiyatlarda turg‘unlik, barqarorlik va izchillik yo‘q. Shu bilan birga, turli xil ilmiy yo‘nalish vakillari shaxs xususiyatlari tushunchasini turli xil yondoshuvlar asosida tushuntiradilar, biz esa o‘zimizning tadqiqot ishimizda egoizmni turli yosh davrlarda namoyon bo‘lishi, darajalarini tajribalar asosida o‘rgandik va keyingi tadqiqotimizda egoizm yuqori ko‘rsatkichdagi sinaluvchilar bilan psixokorreksion dastur asosida o‘rganishni vazifa qilib belgiladik.

ADABIYOTLAR

1. *Imom Abu Homid G‘azzoliy Qalbning davosi: diniy-ma’rifiy / Imom Aby Homid G‘azzoliy. –T.: “Munir” nashriyoti, 2021.-203 b.*
2. *Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Словарь русского языка. - М.: Русский язык, 1993. - 939 с.*
3. *Осипова А.А. Общая психокоррекция. учебное пособие. М.: Сфера, 2002 г. 510 С*
4. *Sanders S.M. Egoism, Self and Others //ThePersonalist.1978. Vol. 59. P. 295-303*
5. *Kalin J. In Defense of Egoism // Morality and Rational Self-Interest / Ed. Gauthier D.P. Englewood Cliffs: Prentice-Hall. 1970. P. 64-87.*
6. *Системный подход в современной науке: К 100-летию Людвиг фон Бергманна/ Отв. ред. И.К.Лисеев, В.Н.Садовский. – М.: Прогресс-Традиция. 2004. –561 с*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10845045>

ZULFIYA SHE'RIYATIDA PEYZAJ TASVIRI

Oripova Gulnoza Murodilovna

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ochilova Madinaxon Nodirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi

4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada Zulfiya she'riyati bo'yicha fikr bildirilgan. Asosan, she'rlaridagi tabiat tasviri mavzusi tahlil qilingan, ilmiy tushunchalar bilan izohlab firklar bildirilgan. Shuningdek, shoir ijodida peyzaj alohida ahamiyat kasb etishi misollar bilan isbotlangan.

Tayanch tushunchalar: lirika, peyzaj, badiiy san'atlar: tashbih, tashxis, metofara, kinoya, istiora.

ANNOTATION

The article expresses opinion on Zulfiya poetry. Mainly, the subject of nature image in his poems is analyzed, opinions are expressed by explaining them with scientific concepts. It is also proved by examples that the landscape is of special importance in the work of the poet.

Basic concepts: lyric, landscape, artistic arts: tashbih, diagnosis, metaphor, irony, metaphor.

АННОТАЦИЯ

В статье высказывается мнение о поэзии Зулфия В основном анализируется тема изображения природы в его стихах, высказываются мнения, объясняя их научными понятиями. Также на примерах доказывается, что особое значение в творчестве поэта имеет пейзаж.

Основные образы: лирика, пейзаж, изобразительное искусство: ташбих, диагноз, метафора, ирония, метафора.

Kirish.

Lirik turga tegishli asarlarda soʻzning ohangi ham kayfiyat ifodasini berish, ham holat tasvirini chizish, ham taassurot manzarasini koʻrsatish vositasi boʻlganligi uchun lirik asarni tahlil qilishda badiiy omillarni topishga alohida diqqat qaratish zarurdir. Lirik asarda kayfiyat qay darajada tasvirlanganligi uning estetik qiymatini tayin etuvchi asosiy omildir. Lirikaning mavzulari ichida tabiat mavzusi va uning tasviri (peyzaj) alohida ahamiyatga ega. Peyzaj tabiat tasviri boʻlib, badiiy asarning gʻoyaviy-estetik quvvatini oshirishga xizmat qiladi. Izzat Sulton tabiat tasviri haqida quyidagi fikrlarni qayd etadi: Badiiy asarda tabiat hodisalari va koʻrinishlari syujetning rivojini tezlatuvchi yoki sekinlatuvchi faktor sifatida ham tasvirlanishi mumkin. Ammo, tabiat manzaralaridan qahramonning ruhiy holatini ochib berish uchun foydalanish badiiy asarda eng koʻp uchraydigan hodisadir.

Badiiy adabiyotda inson xarakterini yaratish, uning murakkab qirralarini ochib berishda ruhiy tahlil oʻrinlidir. Inson ichki dunyosini chuqur va batafsil ochib berishga qaratilgan oʻziga xos badiiy tasvir silsilasidan iborat boʻlmish ruhiyat tasviri ijodkorga qahramon ruhiy olamiga chuqurroq kirib borish, uning nozik ichki kechinmalarini payqab olish va xatti - harakatlarining mantiqiy ruhiy asosini ochib berishni taqozo etadi. Ruhiy tasvir xarakter yaratishning muhim vositalaridan biridir va u oʻziga xos 58 uslubiy hodisa sifatida muayyan badiiy mazmunni ifoda etishga xizmat qiladi.

Ijodkor ruhiy holatini aks ettirishda peyzaj tasviri yetakchilik qiladi. Peyzaj¹ (frans. paysage mamlakat joy) 1) rassomlik va haykaltaroshlikda tabiatni aks ettiruvchi janr yoki shu janrda yaratilgan alohida asar. 2) adabiyotda - badiiy soʻz vositasidagi tabiat tasviri, ifodasi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri boʻlib, asarning estetik quvvatini oshirish, qahramonning ruhiy holatini, ichki dunyosini ochish kabi vazifalarni bajaradi. Tabiatning maʼlum bir lavhasi, ijtimoiy hayotdagi biror hodisa yoki voqea adib qalamida poetik obraz qiyofasiga kiradi va uning badiiy maqsadlari bilan bir qatorda oʻquvchi maʼnaviyatini rivojlantirish yoʻlida xizmat qiladi. Poetik obrazlarning shakllanishida ijodkorning tabiat va jamiyat bilan aloqasi, unga munosabati ham muhim rol oʻynaydi.

Peyzajning juda muhim xususiyatini taʼkidlash joizki, u qahramonlarning kechinmalari bilan chambarchas bogʻliq, ularning his-tuygʻulari va kayfiyatlarini, uning badiiy maqsadlari bilan bir qatorda oʻquvchi maʼnaviyatini rivojlantirish yoʻlida xizmat qiladi. Peyzajning yorqin namunalarini Zulfiyaning quyidagi “Bahor keldi seni soʻroqlab” sheʼri misolida koʻrish mumkin:

*Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...*

Bu sheʼrda peyzaj yaʼni tabiat tasvirining yorqin namunasi aks etgan boʻlib, jumladan, bahor tasviri metafora (oʻxshatishlar) orqali oʻzining yorqin ifodasini topgan. Maʼlumki, bodom guli va binafsha bahor elchisi sifatida etirof etiladi va bahor kelganidan darak beradi. Bahor fasli kelishi bilan qushlar parvozi, xususan, qldirgʻochlarning oʻlkamizga qaytib kelishi tasviri ifodalangan desak mubolagʻa boʻlmaydi. Shoir qirlarda bahor deganda bevosita lolaqizgʻaldoqlarga ishora

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2018.

qilayotganini payqash mumkin. Bu misralarda shoira bahor faslini madh etish orqali Hamid Olimjon bilan o'tkazgan yoshlik chog'lariga, umrining bahor fasliga ham ishora qiladi.

Zulfiya bu she'rida o'lkamizga bahor kelishi tasviri orqali o'zining ko'ngil kechinmalari, qalbidagi his tuyg'ularini ifodalagan va bu she'r peyzaj lirikasiga mansub hisoblanadi. Tabiatdagi jo'shqin hayot Zulfiya qalbiga ham jo'shqinlik olib kiradi va shoira hijron mavzusini kuylar ekan, yashashga bo'lgan muhabbati, hayotsevarlik g'oyalarini she'rga singdiradi. Ko'rinadiki, shoira hijron mavzusi orqali hayotsevarlik g'oyalarini uyg'unlashtirib, she'rning g'oyaviy badiiy xususiyatlarin ochib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Z. Isroilova. *Tong bilan shom aro. Saylanma. " Sharq" nashriyoti - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent - 2005.*
2. D. Quronov. Z.Mamajonov. M.Sheraliyeva. "Adabiyotshunoslik lug'ati. "Akademnashr". 2013. -408b.
3. <https://n.ziyouz.com/kutubxona>
4. D.Quronov. "Adabiyot nazariyasi asoslari"D.Quronov. Toshkent: Akademnashr, 2018. - 480b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10845094>

KURSANTLARNI MA'NAVYI-AXLOQIY TARBIYALASH TAMOYILLARI

Karimov Bobur Bagadirovich
O'R QK Akademiyasi ilmiy tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Maqola kursantlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tamoyillariga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, ta'lim mazmunini takomillashtirish, o'qitishning innovatsion shakl, metod va vositalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirish masalalarini yoritishga bag'ishlangan.

Tayanch tushunchalar: ma'naviyat, tarbiya, mexanizm, tamoyil, metod, shakl, axloq.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена освещению вопросов совершенствования содержания образования, формирования необходимости широкого внедрения в практику инновационных форм, методов и средств к тенденциям духовно-нравственного воспитания курсантов.

Ключевые слова: духовность, воспитание, механизм, принцип, метод, форма, мораль.

ABSTRACT

The article is devoted to highlighting the issues of the formation of spiritual and moral education of cadets during extracurricular time.

Key words: spirituality, education, mechanism, principle, method, form, morality, lesson.

Jamiyat taraqqiyotining ehtiyoji sifatida paydo bo'lgan pedagogika yaxlit ta'limot tarzida o'zining bir-biriga bog'liq umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi (didaktika), tarbiya nazariyasi hamda boshqarish pedagogikasi kabi tarkibiy qismlarga ega. Jamiyat rivojining ehtiyoji sifatida paydo bo'lgan bu fan uning taraqqiyot darajasiga bog'liq holda o'zgarib boradi. Bu o'zgarish uning hamma sohasi (predmeti) va tarkibiy qismlariga ham taalluqlidir. Shuning oqibatida uning maktabshunoslik qismi bazasida hozirgi kunda yangi yaxlit bir fan – boshqarish pedagogikasi fani ham shakllandi.

Jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy rivojlanish qancha tezlashsa, shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlariga bo'lgan talab ham shuncha oshadi. Jamiyat taraqqiyoti bilan shaxs kamoloti bir-biriga to'g'ri mutanosib va o'zaro dialektik bog'liq jarayonlar hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti shaxs kamolotiga har tomonlama ta'sir qilib unga talablar qo'yadi, o'z navbatida shaxsning kamolot darajasining oshishi jamiyat rivojini tezlashtiradi.

Bu holat jamiyat va shaxs rivojining qonuniyati sifatida insonga yangi sifatlarni shakllantirish, uni ma'naviy va kasbiy jihatdan takomillashuvini taqozo qiladi. Buning oqibatida ko'pgina yangi fanlar paydo bo'lmoqda. Agar bu jarayonni pedagogika fani misolida ko'radigan bo'lsak, keyingi o'n yilliklarda umumiy pedagogika bazasida 10 dan ortiq pedagogik fanlar paydo bo'lib, jamiyatda yashash huquqini oldi, shaxs ta'lim-tarbiyasida o'z o'rnini egalladi. Bular maktabgacha ta'lim pedagogikasi, oila pedagogikasi, xalq pedagogikasi, malaka oshirish pedagogikasi, umumiy pedagogika, kasbiy pedagogika, oliy maktab pedagogikasi, maxsus pedagogika, qiyosiy pedagogika, harbiy pedagogika, axloq tuzatish pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika va h.k. Pedagogikaning bunday tarmoqlanish jarayoni hali tugagani yo'q.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya umumjamiyat ishiga aylandi. Keyingi yillar tajribasi shuni ko'rsatdiki, insonni butun umri davomida tarbiyalash lozim. Ammo inson hayotining turli davrlarida uning ta'lim-tarbiyaga ehtiyoji va munosabati turlicha bo'ladi. Yoshlar bilim, hunar o'rganib jamiyatda o'z o'rnini egallashni ko'zlasa, katta yoshdagilar farzandlarini tarbiyalash, o'zlarini shaxs sifatida ma'naviy-ma'rifiy

o‘stirish, malakalarini takomillashtirish, yangi kasb egallash nuqtai nazaridan pedagogikaga yondashadilar.

Pedagogikaning tarmoqlanishi va ta‘lim-tarbiyaning butun jamiyat doirasida ta‘sirining kuchayib borishida tarbiyaning o‘rni alohida namoyon bo‘lmoqda. Buning o‘ziga xos sababi bor. Ta‘lim bilan tarbiya birligida tarbiyaning o‘rni shu bilan belgilanadiki, oliy ta‘lim muassasasi kursantsi o‘rgangan bilimlarini qanday maqsadga qaratadi - ezgulik, go‘zallik, moddiy-ma‘naviy boyliklar yaratib, fan cho‘qqilarini egallab jamiyat rivojiga hissa qo‘shishgami yoki vayronagarchilik, terrorizm, go‘zallik va odamlarni xarob qilishgami? Buni, albatta insonning tarbiyalanganlik darajasi belgilaydi.

Ma‘naviy-axloqiy tarbiya bilimlarni ishonch, e‘tiqodga aylantirib, shaxsga undan foydalanish yo‘nalishini belgilab beradi. Shuning uchun mustaqillik sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgana‘lim islohoti, uning modeli markazida barkamol inson shaxsini tarbiyalash bosh maqsad qilib qo‘yilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, jamiyatda ma‘naviy-axloqiy tarbiyaga jiddiy qarash zarur. Ma‘naviy-axloqiy tarbiya eng avvalo oily ta‘lim muassasalari kursantlariga jamiyatda yashash, ijtimoiy sifatlarni egallab olishlarining eng ta‘sirchan vositasidir.

Ma‘naviy-axloqiy kursantlarning ijtimoiy munosabatlar tizimida ishtirok etib, birlariga ta‘sir qilib insoniy xislatlarni egallab olishlariga yordam beradi. Demak, ma‘naviy-axloqiy tarbiyaga shunchaki bir o‘tkinchi hodisa deb qarab bo‘lmaydi. Ma‘naviy-axloqiy tarbiya jamiyatda abadiy davom etadigan jarayon bo‘lib, o‘z tarkibiy tuzilishi: maqsad, moddiy baza, tamoyil, qonuniyatlar va metodlar, shakl va vositalar, subyekt va obyekt, boshqarish va natijaga erishish kabilar bilan yaxlit pedagogik tizimdir. Boshqa ijtimoiy tizimlardagidek, ma‘naviy-axloqiy tarbiya ham uni tashkil qilishda ma‘lum qonuniyatlarga rioya qilishni zarurat qilib qo‘yadi.

Pedagogik jarayonlar ham shaxsning shakllanishida muhim, mohiyatli takrorlanib turuvchi ichki bog‘lanishlarni ifodalaydi. Bu o‘zaro bog‘lanishlar jamiyat, uning ijtimoiy munosabatlari, shaxs va muhit, insonlarning o‘zaro ta‘sirida muhim, umumiy,

ichki va mohiyatli bog‘lanishlardan kelib chiqadi. Shuning uchun biz insonning biron bir sifati yoki xususiyati haqida gapirar ekanmiz, undagi bu xislatlar boshqa kishilar va jamiyatdagi munosabatlar bilan o‘zaro aloqadorlikda shakllanishini e‘tibordan soqit qilmasligimiz kerak. Shundan kelib chiqib, ma‘naviy-axloqiy tarbiya qonuniyatlarini pedagogik hodisa va jarayonlarning o‘zaro aloqalaridan keltirib chiqarmoq lozim.

Biron bir nazariya, ta‘limot, fan, dunyoqarash, g‘oya, siyosiy tashkilot, jamiyatning asosiy qoidalari bo‘lib, busiz ular o‘z mohiyatini yo‘qotadi. Mazkur fan, ta‘limot shu hodisalar asosida amal qiladi, o‘z sohasini o‘rganadi. Shu bilan birga biron sabab, mexanizmning tuzilishi, ishlash tamoyilining tub xususiyatlarini ham ifodalashi mumkin. Dunyoqarash – o‘ziga va voqelikka munosabatini belgilovchi e‘tiqod, xulqatvor me‘yorlari ham ma‘lum g‘oyaviy, axloqiy tamoyillarga tayanadi. Shaxsning ma‘lum g‘oyaga e‘tiqodi asosida ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy munosabatlarda aniq bir nuqtai nazarga ega bo‘lishi uning maslagining prinsipi (tamoyili) hisoblanadi.

Mustaqillik sharoitida ma‘naviy-axloqiy tarbiya butun jamiyat ishi bo‘lib, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan, tarbiyaviy jarayon milliy lashib, uni insonparvarlashtirish, yakka shaxsni emas, balki butun jamiyat, jamoalarni tarbiyalash, ularning ma‘naviy dunyosi, ongi, tafakkurini o‘zgartirish ijtimoiy zaruratga aylanganda bu tarbiya tamoyillari yaroqsiz bo‘lib qoldi. Mustaqillik sharoitida kishilarni gumanistik, umumbashariy va milliy qadriyatlar, urf-odat, an‘analar ruhida tarbiyalash zaruriyati ma‘naviy-axloqiy tarbiya tamoyillarini tasnif qilishda axloqiy, insonparvarlik va jamoaviy xususiyatlar ma‘naviy-axloqiy tarbiyani belgilovchi tamoyillar bo‘ladi. Tamoyillar milliy istiqlol mafkurasining gumanistik g‘oyalariga asoslanishi kerak.

Ma‘lumki, tarbiyaviy jarayonlar yaxlit tizim sifatida bir-biriga bog‘liq hodisalarning sabab va oqibat tarzida rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Ma‘naviy-axloqiy tarbiya jarayonidagi pedagogik hodisalar ma‘lum qonuniyatlar asosida o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Ularni bilish ma‘naviy-axloqiy tarbiya asoslarini ilmiy jihatdan egallab olish, boshqarish va rejalashtirish uchun muhim negiz sifatida xizmat qiladi. Har bir

pedagogik hodisa ma'lum sabablarga ko'ra vujudga kelib, muayyan natijaga olib keladi. Shuning uchun u yoki bu pedagogik jarayon yoki hodisani keltirib chiqargan sabablarni aniqlash, ularni faqat bilibgina qolmasdan, ijobiy ta'siridan foydalanish, salbiylarining oldini olish imkoniyatini beradi. Shu asosda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini ilmiy asosda boshqarish, uni shaxs kamolotiga yo'naltirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Kursantlar ma'lum kasbni egallash va shu asosda ijtimoiy-mehnat faoliyatining subyektiga aylanish arafasida turgan shaxs hisoblanadi. Yoshlarni tarbiyalash jarayoni haqida fikr yuritar ekanmiz, mazkur jarayonda amal qiluvchi ayrim tushunchalar va atamalarning qo'llanish (amal qilishi) sohasi haqida o'z tajribamiz va mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz. Chunonchi, ma'naviyaxloqiy tarbiya qonuniyatlari va tamoyillarining o'zaro munosabati haqida gap ketganda shuni ta'kidlash kerakki, qonuniyatlar amal qilishi va qamrab olishi jihatidan ancha keng hamda muntazam bog'lanishlarni aks ettiradi. Ular tamoyillarga qaraganda umumiyroq xarakterga ega. Tamoyillar tarbiyaviy ishlarni olib borishda tarbiyachi tarbiyaviy ta'sirni oshirish uchun o'z faoliyatida tamoyillarga rioya qilishi, ularning talabidan kelib chiqishi kerak.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga xos bo'lgan xususiy qonuniyatlardan yana biri – uning maqsad va vositalarining bir-biriga mos kelishidir. Maqsad va vositalarning dialektik birligi tarbiyaning tuzilishi va o'zaro funksional bog'liqligini ifodalaydi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning uzoqni ko'zlagan istiqboli - strategik va unga bog'liq yaqinni ko'zlagan maqsadlari - taktik bo'lishi mumkin. Har bir jamiyatning ijtimoiy ideallari bo'lib, u kishilarning hayot tarzida o'z aksini topadi. Jamiyat a'zolari shular asosida o'zlarining qisqa muddatli rejalarini va unga muvofiqharakat, xulq-atvorini belgilab oladi. Oily ta'lim kursantsining strategik maqsadi o'qishni bitirish, mutaxassis sifatida hayot yo'lini belgilash, kelajakda yetuk kasb sohibi va obro'li odam bo'lish. Yaqin maqsadlari - o'quv yili 1-yarim yilligi imtihonlarini va o'quv yilini muvaffaqiyatli yakunlash. Shu asosda kursant o'z

jismoniy, ma'naviy-axloqiy, ruhiy tarbiyasi yo'nalishini belgilab, o'z faoliyatini unga bo'ysundiradi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy-axloqiy tarbiya ham ma'lum qonuniyatlar va tamoyillarga rioya qilib, o'z navbatida tarbiyaning talablari, maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi. Bu tamoyillar hozirgi davrda milliy g'oyaga hamohang tarzda ma'lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mafkuraning g'oyaviy yo'nalishini amalga oshiruvchi muhim vositaga aylanadi. Bu esa ma'naviy-axloqiy tarbiyaning g'oyaviyligi va maqsadga yo'naltirilganligi qonuniyatiga obyektiv amal qilishi bilan kursantlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. *O'zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishdagi nutqi.*//Vatanparvar, 2024. 15 yanvar.
2. Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to'plami. 7-tom. "Xamsa", ("Hayrat ul-abror")*, -T., Fan, 1991, - 390 b.
3. Asamiddinov E.A. *Axloqiy madaniyat va uning rivojlanish xususiyatlari. Fal.fan. nom. ... dis. – T., 1999.- 145 b.*
4. Begmatov A., Rustamova R. *Milliy g'oya targ'iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar. – T.: Ma'naviyat, 2007.- 64 b.*
5. *Ma'naviyatning asosiy tushunchalar izohli lug'ati/ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. - Toshkent: G'.G'ulom, 2009. -760 b.*
6. Oripova www.tdpu.uz
7. www.Ziyonet.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10845135>

MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA JADIDCHILIKNING O‘RNI

Sobirjonov Shuxratjon Saydullaevich

O‘R Q K Akademiyasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqola vatanni mustaqil ko‘rishni orzu qilgan va shu yo‘lda fidoiylarcha kurashgan, milliy ozodlik harakati, xalqning ma‘naviy holatida jadidchilik harakatining asosiy mohiyatini yoritishga bag‘ishlangan.

Tayanch tushunchalar: *jadidchilik, xalq, ma‘naviyat, siyosat, ma‘rifat, inqilob, vatan, madaniyat.*

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена освещению основной сущности джадидского движения, национально-освободительного движения, духовного состояния народа, который мечтал видеть родину независимой и самоотверженно боролся на этом пути.

Ключевые слова: *джадидизм, народ, духовность, политика, просвещение, революция, Отечество, культура.*

ABSTRACT

The article is devoted to highlighting the basic essence of the Jadidist movement, the national liberation movement, and the spiritual state of the people who dreamed of seeing their homeland independent and selflessly fought along this path.

Keywords: *Jadidism, people, spirituality, politics, enlightenment, revolution, fatherland, culture.*

XIX asr oxiri XX asr boshlarida yuzaga kelgan milliy o‘zlikni anglash harakati-jadidchilik xalq milliy ongini oshirish, jahon taraqqiyoti bilan tanishtirish, xususan, milliy mustaqillik mafkurasini ro‘yobga chiqarish kabilarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Bu harakatlar o‘zining shakllanish, yo‘llarini bosib o‘tar ekan, asr

boshidan 1917-yil fevral inqilobga qadar bo'lgan dastlabki bosqichida milliy ozodlik harakati sifatida rasmiylashtirildi.

Jadidchilar orasidan yetuk olim va fuzolalar, ziroatchilik sohalarining zamonaviy oqil mutaxassislari, madaniyat vakillari yetishib chiqilar, yurtning obod va Vatanning ozod va hur ko'rishni orzu qilgandilar va shu yo'lda kurashdilar. Jadidchilarni Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan ushbu yo'nalishlar ustuvor edi: yangi yunalishdagi maktablar tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni o'zga, mamlakatlarga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy tadbirlar va teatr guruhlarini shakillantirish; gazeta, jurnallar chiqarish; xalqning ijtimoiy ongini oshirish bilan Turkistonda demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarni kuchli partiyasini tashkil qilingan taqdirda bu ishlarni amalga oshirish mumkin bo'lar edi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib adidlar o'z oldiga quyidagilarni maqsad qilib olishdi: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod qilish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurashish, Buxoro va Xivada konstitutsion, monarxiyaga, keyincha demokratik respublika tizimini o'rnatish orqali ozod va farovon jammiyat qurishni, barqaror o'z valyutani yaratish va o'z qo'shinini tuzish. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada aniq fikrlay oladigan va vatanparvar kishilarni ayrimlari tamonidan olingan ma'rifiy, madaniy yo'nalishdagi jamiyat va tuzilmalarda jadidchilik harakatlari shakillandi. Qoloq aholining e'tiborini jalb etish uchun dastlab xayriya jamiyatlari ta'sis etildi. Turkistonda keng qamrovli zamonaviy xayriya jamiyati tuzish masalasi birinchi bor 1906 yili "Taraqqiy" gazetasida kun tartibiga qo'yilgan edi. Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (Samarqand), Munnavarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla xo'ja Asadullaxo'jaev (Ubaydulla Xo'jaev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo'jaev, Usmon Xo'ja (Usmonxo'ja Po'latxo'jaev), Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhitdinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon,

Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Polvonniyoz Hoji, Yusupov, Boboxun Salimov (Xorazm) turardi.

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yo'nalishiga ko'ra uchga bo'linadi: Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlari o'rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o'lkasida jadidchilikni ijtimoiy asosini ziyolilor tashkil qilishganlar. Ular podsho Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xom ashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so'nga mustaqil davlat bo'lishini yoqlab chiqdilar. D.Alimovanning yozishicha jadidlar mafkurasida hozirgi kunda jamiyatni tashvishiga, solayotgan dinning inson ma'naviy kamolotidagi o'rnini to'g'ri tushunish, bozorni shakllantirish, jarayonlarini faollashtirish, taraqqiyparvar demokratik institutlarni vujudga keltirish, o'lkada o'ziga xos milliy rivojlanishni shakllantirish kabi tarixiy vazifalar jamlangan edi. Bu vazifani amalga oshirish uchun muhim shartlar bo'lib, islomiy tushunchani yangilash, uni mutaassiblikdan tozalash, fan yutuqlari va ilg'or texnologiyani egallash muammolarini hal etish lozim edi. Shuningdek, to'liq diniy ta'limga asoslangan maktablar dasturini ham qayta ko'rib chiqish zarur bo'lib, namunadagi maktablarni o'lka bo'ylab yoyish ham kerak edi. Shu maqsadda maktablar barpo etildi. O'lkadagi dastlabki yangi usul maktablari Qo'qon uezdida Ahmadjon qori tomonidan 1892 yilda ochilgan. Jadidlar islomning taraqqiyparvar rolini tushuntirish bilan ta'lim, iqtisod, madaniyat va umuman, jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh etish zaruriyatini tushuntirishga intilganlar. Qur'on va uning tafsirini juda yaxshi bilgan muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy o'z maqolalaridan birida Qur'on oyatlari va payg'ambarimiz hadislaridan namunalar keltirish bilan islom ta'lim maorif va barcha fanlarga, shu jumladan tarix faniga qay darajada katta ahamiyat berganligini isbotlab bergan. U islom tarixini bilmasligi oqibatida aksariyat hollarda o'ng'aysiz vaziyatga tushib qoladigan din peshvollarini tanqid qiladi.

Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo'lgan. Rossiyo, Turkiya, Misr mamlakatlaridagi turli taraqqiyparvar oqimlar dasturlaridan xabardor bo'lganlar,

o‘zaro safarlar va muloqotlar, orqali tajriba almashdilar. 1905-1906 yilgi Rossiyada inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi.

Jadidlar Rossiyoda siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordilar, kelayotgan rus siyosiy partiyalari dusturlarini o‘rgandilar. Lekin milliy mentalitetning o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan o‘zbek xalqining tinchliksevarlik, bosiqlikka moyilligidan kelib chiqib, ular tinchlik yo‘li bilan, jamoatchilikning murojaatlari, Davlat Dumasidagi ommaviy bahslar va boshqa legal vositalar bilan podsho hokimiyatidan o‘z maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida yon berishga erishishga intildilar. Behbudiyning 1906 yil 11 oktabrda “Xurshid” gazetasida chop etilgan maqolasida ta’kidlanishcha, jadidlar birlashib yagona musulmon partiyasi tuzish va Butunrossiya musulmonlari ittifoqi tarkibiga kirishlari zarur. Behbudiy ushbu maqolasida sotsial – demokratlar partiyasiga nisbatan o‘zining salbiy munosabatini bildiradi va bolsheviklar partiyasi dasturining musulmonlar turmushi talablariga muvofiq kelmaydigan xayoliy (utopik) qarash ekanligini 1906 yildayoq bashorat qilgan edi. XX asr tarixi Behbudiy fikrlari to‘g‘ri ekanligini to‘liq isbotlab berdi.

XX asr boshlaridayoq milliy ozodlik harakati bayrog‘ini dadil ko‘tarib, milliy kuchlar birligini ta‘minlash borasida salmoqli faoliyat ko‘rsatgan Turkiston jadidlari jahon jamoatchiligi e‘tiborini o‘ziga tortganligini alohida ta’kidlab o‘tish kerak. Taniqli adabiyotshunos olim N. Karimovning yozishicha, Turkistonda siyosiy partiyalar faoliyatini yaxshi o‘rgangan fransuz razvedkachisi mayor Lyakosta, 1906 yilda o‘z mamlakatiga yo‘llagan yashirin ma’lumotiga bunday yozgan edi: “Turkiston o‘lkasidagi eng e‘tiborli va kelajagi porloq siyosiy kuch sotsial demokratlar (bolsheviklar va mensheviklar) yoki sotsial inqilobchilar (eserlar) yohud kadetlar va liberallar emas, balki o‘zbek jadidlaridir”.

O‘z oldilariga Turkiston xalqlarining taqdiri uchun muhim ahamiyatga molik vazifani qo‘ygan jadidlar 1906 yil yanvar oyida Peterburgda bo‘lib o‘tgan Butunrossiya musulmonlar Burultoyiga (o‘z vakillarini yuborib, Rossiya tasarrufida yashagan boshqa musulmon xalqlar va ularning peshqadam arboblari bilan aloqa

o‘rnatganlar. Xususan, Rossiya Davlat dumasiga Turkistondan saylangan birinchi deputat Toshkentlik Abduvohidqori Abduraufqorievning bu sohadagi katta tashkilotchilik qobiliyati diqqatga sazovordir. U keyinchalik Munavvarqori Abdurashidxonov bilan birgalikda “Sho‘roi Islom” jamiyatini tashkil qilgan edi.

Rossiyani Turkistonda maxfiy politsiya idorasi ham jadidlarni o‘zbek savdo, sanoatni qo‘llash, quvvatlash va ular shakllanayotgan yoshlarga yomon ta’sir ko‘rsatayotganidan xavotirlanib, Markazni jadidlar bilan jiddiy hisoblashishga chaqirgan edi. 1916 yildagi milliy ozodlik qo‘zg‘oloni va 1917 yilgi Rossiya Fevral inqilobining o‘lkadagi jadidchilik harakatining yanada keng avj olishida va jadidlar faoliyatida keskin sifat o‘zgarishi yuz berishida o‘rni va roli katta bo‘ldi. Jadidlarning ma’rifiy–mafkuraviy jabhadagi kurashi aniq ifodalangan siyosiy kurash tusini oldi va bu harakat sifatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Jadidlar rivojlangan jamiyat yaratishdek o‘z g‘oyalarini amalga oshirishda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurashga alohida ahamiyat berganlar. Bu vazifalarni amalga oshirishda ular taraqqiyparvar, bilimli yoshlarga tayanganlar. Ular o‘z ishlarida Yevropa davlatlari taraqqiyotga qanday yo‘llar bilan yetib kelganligini aks ettirib, tarixiy misollar keltirganlar. Jadidlar til o‘rganish va fan-texnika taraqqiyotining ahamiyatiga alohida e’tibor berib, Turkistonning o‘tmishdagi hamda zamonaviy holatining o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda, uning kelajagini quyidagicha tasavvur qilganlar: kuchli dunyoviy hokimiyat, xususiy mulkning daxlsizligi. Ular qurmoqchi bo‘lgan davlat islomga hurmatini saqlagan holda barcha yo‘nalishdagi madaniyatlarning erkin rivojlanishiga xayrixoh bo‘lishi lozim edi. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko‘tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o‘quv maskanlarida o‘qitish zarur, deb hisoblaganlar. Ular davlat kelajagi yoshlar qo‘lida ekanligini juda yaxshi anglaganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. *“Jadidlar g‘oyasi- Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan g‘arb tomonlama uyg‘un va hamohang” ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishidagi nutqi.*// 2023. 22 dekabr.
2. S.Agzamjodjaev. *Jadidchilikning g‘oyaviy rivojlanish bosqichlari.* – T., 2016. – 84 b.
3. B.Xasanov. *Jadid matbuoti sahifalarida Turkistonda ta’lim masalalarining yoritilishi.*– T., 2018. – 145 b.
4. D.Ziyoeva. *XX asr boshlarida shahar kutubxonalari taraqqiyotida jadid ma’rifatparvarlarining o‘rni.*– T., 2018. – 75 b.
5. www.pedagog.uz
6. www.tdpu.uz
7. www.Ziyonet.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10845167>

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI ART-PEDAGOGIKA VOSITASIDA TARBIYALASH

Umirova Mohinur Mirzo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda Art-pedagogikadan keng qamrovli foydalanish xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: texnologiya, estetik tarbiya, go‘zallik, axloq, ma‘naviyat, kreativlik, komil inson, ruhiyat, psixologiya, ijodiy fikrlash, qobiliyat.

KIRISH

Boshlang‘ich ta‘lim kelajak poydevoridir. O‘sib kelayotgan yosh avlodga ta‘lim va tarbiya uyg‘unlikda berib borilsa, kelajakda yetuk shaxs bo‘lib yetishida dasturamal bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyatning gullab yashnashi va taraqqiy etishi yoshlar salohiyatiga bog‘liq jarayon hisoblanadi. Boshlang‘ich ta‘lim davrida egallangan bilimlar kelgusi bilimlarni o‘zlashtirish uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Yosh avlodni har tomonlama mukammal qilib voyaga yetkazish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda. Salohiyatli bilimli, yoshlarni tarbiyalashda esa umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari va pedagoglarning o‘rni katta ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodni zamon talablariga mos ravishda kreativ fikrlaydigan qilib tarbiyalash lozim. Bunda nafaqat ta‘lim tashkilotlari balki, oila va jamiyat a‘zolarining roli ham katta. Shaxs tarbiyasi nihoyatda nozik jarayon hisoblanadi.

Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim davri inson shakllanishida va ongi taraqqiy etishida dastlabki zinpoyani qo'yadi. Shunday ekan boshlang'ich sinf o'qituvchisini zimmasida ulkan vazifa va mas'uliyat borligi shubhasiz va ravshandir. Har bir pedagogni vazifasi vatan ertasi bo'lgan yoshlarga sifatli ta'lim va mukammal tarbiya berib uni hayotga tayyorlashdan iborat. Bu jarayon esa o'z navbatida pedagoglardan mashaqqat va ulkan sabrni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risidagi qonun, I.Karimov asarlari, Sh.Mirziyoyev asarlari va mavzuga oid adabiyotlardan foydalanildi.

Maqolani yozish davomida art-terapiyasiga oid bir qancha tamoyillar qo'llanildi.

MUHOKAMA

Art-pedagogikasi san'at va pedagogika uyg'unligida bolalarni san'at orqali tarbiyalashdir. Art-pedagogikasi vositasida deviant xulqli bolalar ruhiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.



1-rasm . Art-pedagogika qamrab olgan asosiy tushunchalar

Shaxs ruhiyatini tarbiyalashda art-pedagogikasidan keng qamrovli foydalanish yaxshi samara beradi. Art-pedagogikasi shaxs ruhiyati va psixologiyasiga samarali ta'sir etish bilan bir qatorda, bolaning ijodiy fikrlashiga ham turtki bo'ladi. Ushbu yondashuv san'atning barcha turlarini qamrab oladi va pedagogik jarayonlarda samarali qo'llashni talab etadi. San'atning barcha tarmoqlari orqali bola xarakter xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishga erishish mumkin. San'at insonning nafaqat ruhiyatiga, balki tafakkuriga, his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini art-pedagogikasi yordamida tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

- Bolada go'zal fazilatlar va namunali xulqni shakllantirish.
- Ruhiyatida sodir bo'ladigan salbiy qarashlarni, san'at yordamida bartaraf etish.
- Komil inson obrazini aks ettirish.

Bola tarbiyasi nihoyatda nozik jarayon hisoblanib, vaqtida bartaraf etilmagan nuqsonlar kun kelib o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi albatta. San'at xususida P.P.Bloniskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy va boshqa olimlar quyidagi fikrlarni ta'kidlagan. "San'at bu – insonni tarbiyalash, rivojlantirish va o'qitishda samarali omil "deya ta'rif berishgan. San'at orqali inson ma'naviya tafakkurini sayqallashga erishish mumkin. San'at shaxsning his-tuyg'ulariga emotsional ta'sir ko'rsatadi. Art –pedagogikasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga ham undaydi. Demak san'at bolaning ruhiyatiga ta'sir etish bilan bir qatorda, uning aqliy faoliyatiga ham ijobiy ta'sir etadi. San'at bolada estetik tarbiyaning shakllanishiga ham zamin yaratadi. Estetik tarbiyaning tarkib topishi esa ma'naviy axloqning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham art-pedagogikasi yordamida islohotlarni amalga oshirish keng qamrovli yo'lga qo'yilsa, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida kuzatiladigan nuqsonlarni bartaraf etishga erishish mumkin. Yevropa mamlakatlarida esa ushbu sohadan keng miqyosda foydalaniladi. Mutaxassislar bola o'z qo'llari bilan chizgan

rasmlari, yoki yaratgan ijodiy ishlari orqali ham uning psixologiyasiga yetarlicha tashxis qo'yishga muvaffaq bo'ladilar.

San'at pedagogikasi – pedagogikaning bir tarmog'i hisoblanib, ushbu tarmoqda bola shaxsini tarkib toptirish, tarbiyalash va har qanday o'qitiladigan fanlarni san'at bilan integratsiya qilish tushuniladi. Ushbu turda an'anaviy ta'lim tizimidan biroz chekingan holda ijodiy yondashish, dars jarayonlariga yangilik olib kirish nazarda tutiladi. San'at pedagogikasi vositasida bolaning o'z-o'zini shaxs sifatida anglashini shakllantirish, bolada ijtimoiy –madaniy munosabatlarni tarkib toptirishga erishiladi. Art terapiyaning quyidagi turlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalab, borish nazarda tutiladi.

- Art –terapiya
- Musiqa terapiyasi
- Raqs terapiyasi
- Drama terapiyasi
- Ertak terapiyasi
- Biblioterapiya

Yuqorida ko'rsatilganlarning barchasi bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Art-terapiya bolada ijobiy xususiyatlarni shakllantirish bilan bir qatorda, dunyoga o'zgacha nazar bilan boqishga hamda hayotdan zavqlanish kabi tuyg'ularni uyg'otadi. Bilamizki ayrim boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologiyasida turli o'zgarishlar sodir bo'lib turadi. Ya'ni har bir bolaning psixologiyasi tom ma'noda bir-biriga o'xshamaydi. Ayrimlarida qo'rquv, xafagarchilik va boshqa holatlar kuzatilishi mumkin. Mana shunday vaziyatda ularning ruhiyatiga art-texnologiyasi yordamida davo choralarini izlash lozim bo'ladi.

“Art-terapiya” atamasini so'zma-so'z tarjima qilsak, san'at bilan davolash jumlasini hosil bo'ladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk bor ushbu jarayonni rassom Adrian Xill tomonidan 1938-yilda sil kasalligi bilan ishlash jarayonida kiritgan. Art terapiyasi AQSh da ikkinchi jahon urushi paytida fashistlar lageridan olingan

